



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

Yusupova Munisa Gafurovna

O'ZBEK FOLKLORIDA BO'RI OBRAZI

Bakalavr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan
MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
professor **D.S.O'raeva**

BUXORO – 2014

R E J A

KIRISH.

I bob. O'zbek xalqining bo'ri bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari genezisi.

- 1.1 Bo'rining turkiy xalqlar totemi sifatida qaralishi.
- 1.2 Xalqning bo'ri kultiga inonchi.
- 1.3 Marosimlarda bo'ri ifodasi.

II bob. Xalq nasrida bo'ri bilan bog'liq qarashlarning badiiy talqini.

- 2.1. Afsonalarda bo'ri obrazi.
- 2.2. Ertaklarda bo'ri obrazi.

III bob. Xalq lirikasida bo'ri obrazi talqini.

- 3.1. Xalq lirik qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi.
- 3.1. Xalq marosim qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi.
- 3.2. Bolalar o'yin va o'yin qo'shiqlarida bo'ri obrazi tasviri.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalq og'zaki ijodi ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning voqelikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, voqelikni so'z vositasida poetik ifodalash natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor an'analari shakllangan. Folklor an'analari asrlar davomida xalq badiiy salohiyati sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan.

Bu ma'naviy qadriyatimizni jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslari ulkan ishlarni amalga oshirdi va oshirmoqdalar. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ilmu fan sohasida O'zbekistonda yaratilgan "jahon darajasidagi ilmiy maktablar" haqida so'zlay turib, "o'zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish"¹ maktablarini ham faxr bilan qayd etadi.

Xalqimizning asriy orzularini ro'yobga chiqargan mustaqillik madaniy merosga bo'lgan munosabatni tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari tizimini keng ko'lamda tadqiq va targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlari ochildi. Xususan, o'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarini ajdodlarimiz tafakkurining taraqqiyoti bilan bevosita aloqadorlikda o'rganish, folklor va xalq tarixi munosabatini chuqur yoritib berish, o'zbek folklorining dunyo madaniyati rivojida o'rnini belgilashga doir yangi izlanishlar, tadqiqotlar yaratila boshlandi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари / Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.627-631.

O'zbek folklorshunosligining mustaqillik yillaridagi tadrijiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, og'zaki ijodning tarixiy asoslari, marosim folklori janrlari, folklor va etnografiya munosabatlari, qadimgi mifologik qarashlar va e'tiqodiy ishonchlar bilan aloqador an'anaviy obrazlar, xalqimiz tarixi va dunyoqarashi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishga alohida e'tibor berilganligini ko'ramiz. Ayniqsa, mifologiya va uning o'zbek folklori epik janrlariga munosabati masalasi ko'p qirrali muammo bo'lib, uni izchil tadqiq etish epik syujetlar va mifologik obrazlar genezisi, badiiy rivojini oydinlashtirishga imkon beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi ham, avvalo, bo'ri bilan aloqador xalq qarashlari va epik motivlar yaxlit tizim sifatida birinchi marta tadqiq qilinayotganligi, bo'ri totemining genetik ildizlari, xalq ertaklari va afsonalaridagi badiiy vazifalari ochib berilganligi, bo'ri obrazi misolida mifologiyaning epik janrlar taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatib berilganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bo'ri obrazining mifologik asoslari va o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi epik vazifalari folklorshunoslarimiz tomonidai alohida monografik tadqiqot sifatida maxsus o'rganilgan bo'lmasa-da, jahon va o'zbek folklorshunosligida bu masalaga doir qiziqarli fikr-mulohazalar bayon etilgan ko'pgina ilmiy ishlar mavjud.

Xususan, bevosita bo'ri haqidagi mifologik tasavvurlarning rivojlanishi sababli shakllangan bo'ri obrazining jahon xalqlari folkloridagi talqinlari folklorshunoslikda ancha keng yoritilgan. Bu mifologik personaj va uning mifopoetik talqinlaridan biri bo'ri obrazi Osiyo xalqlari mifologiyasi va folklorida keng tarqalganligi bois xalq og'zaki badiiy ijodida ular bilan bog'liq motivlar ko'p uchraydi.

Ma'lumki, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo'lgan o'zbek xalqi orasida ham bo'ri totemi va bo'ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Bo'rining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor

haqidagi xalq ishonchlari, bo'ring marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham olimlar tomonidan yoritib berilgan.²

Bo'ri obrazi o'zbek folklorshunosligida maxsus tadqiq etilmagan, ammo u haqda M.Afzalov, K.Imomov, G'.Jalolov, X.Egamov, M.Jo'raev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, D.O'raeva, A.Ashirov tadqiqotlarida ayrim mulohazalar mavjud. Bo'ri obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasining ham an'anaviy personajlaridan biri bo'lib, M.Jo'raev bu obrazning genezisini aniqlashga harakat qilgan.³

Bo'ri obrazining o'zbek mifologiyasidagi talqinlari, xalq ertaklaridagi o'rnini M.Afzalov, K.Imomov kabi ertakshunoslar tomonidan birmuncha tekshirilgan bo'lsa, o'zbek totemistik miflarining xalq ertaklaridagi o'rnini tadqiq etgan G'.Akramov ham bo'ri obrazining mifologik mohiyatini oydinlashtiruvchi qiziqarli fikrlarni bildirgan.⁴³

O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslarini o'rgangan A.Musaqulov esa qo'shiqlardagi bo'ri obrazining ramziy ma'nolari xususida to'xtalgan. U bo'ri bilan bog'liq ramzlarning xalq qo'shiqlaridagi talqinlari bevosita bo'ri totemi to'g'risidagi qadimgi mifologik qarashlarga bog'liqligini qayd qilgan.⁵

Udumshunos A.Ashirov o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari xususida to'xtalar ekan, bo'ri kultiga ishonch bilan aloqador udumlarga ham alohida e'tibor berib o'tgan.⁶

Ko'rinyaptiki, bo'ri obrazi o'zbek folklorshunosligida maxsus tadqiq etilgan emas. Lekin o'zbek folklorida bo'ri kulti bilan bog'liq xalq qarashlari va shu asosda yaratilgan epik motivlar yaxlit tizim sifatida keng tarqalganini inobatga olib, uni maxsus tadqiq qilishga to'g'ri keladi. Bunda bo'ri kultining genetik ildizlarini ochishga, xalq ertaklari va afsonalari qatorida xalq qo'shiqlarida ham bo'ri obrazining badiiy vazifalarini yoritishga, shu orqali

² Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков. – С.135-142.

³ Жўраев М. Бўри ҳақидаги қадимги мифлар ва ўзбек фольклори / Адабиёт гулшани. – Т.: Мехнат, 1999. – Б.8-17.

⁴ Акромов Ғ. Тотемистик мифлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 3. – Б.32-35.

⁵ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

⁶ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 199-205.

mifologiyaning epik va lirik janrlar taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatib berishga to'g'ri keladi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi. Malakaviy bitiruv ishida o'zbeklarning bo'ri bilan aloqador mifologik tasavvurlari va e'tiqodiy qarashlari tizimini o'rganish, bo'ri obrazining o'zbek epik folklori syujet qurilishidagi o'rnini va epik-badiiy vazifalarini tadqiq etish asosiy **maqsad** qilib belgilandi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun ishda quyidagi **vazifalarni** bajarish belgilab olindi:

- turkiy xalqlar mifologiyasidagi bo'ri bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlarni tahlil qilish;

- o'zbek xalqining e'tiqodiy qarashlari va mifologik tasavvurlari tizimida bo'ri totemi haqidagi talqinlarning tutgan o'rnini va mazmun-mohiyatini yoritib berish;

- o'zbek epik folkloridagi bo'ri obrazining mifologik asoslari va badiiy rivoji bosqichlarini aniqlash;

- bo'ri obrazining qadimiy ko'rinishlari tasvirlangan epik syujetlarni tadqiq etish;

- bo'ri obrazining o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi epik vazifalarini aniqlash;

- o'zbek xalq ertaklari syujet tizimidagi bo'ri bilan bog'liq epik motivlar genezisini oydinlashtirish.

Malakaviy bitiruv ishining predmeti. O'zbek folklori namunalaridagi bo'ri obrazi ifodalari ishning asosiy tadqiq predmetini tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining manbasi. Malakaviy bitiruv ishini yozishda shu kungacha nashr etilgan o'zbek xalq ertaklari va afsonalari, qo'shiqlari to'plamlaridagi xalq asarlari asos qilib olindi. Shuningdek, xalqimizning bo'ri bilan aloqador mifologik tasavvurlarini turkiy xalqlar folklorida ommalashgan bo'ri totemi va kulti inonchlariga qiyoslab o'rganish maqsadida folklorshunoslik va etnografiyaga oid ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni ham ishga jalb qildik.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi bo'ri totemi va kulti to'g'risidagi mifologik tasavvurlar hamda epik motivlar tizimi yaxlit holda birinchi marta o'rganilishi bilan belgilanadi. Ish natijalarining yangiligi yana quyidagilarda ko'rinadi: **birinchidan**, bo'ri totemi va kultining kelib chiqishi va u bilan aloqador mifologik tasavvurlarning genetik ildizlari oydinlashtirildi; **ikkinchidan**, bo'ri bilan bog'liq xalq qarashlari va e'tiqodlar silsilasiga doir materiallar jamlanib, umumlashtirildi va birinchi marta yaxlit holda bayon etildi; **uchinchidan**, o'zbek epik folkloridagi bo'ri personajining mifologik tabiatiga doir ilmiy kuzatishlar olib borildi hamda uning har bir ko'rinishiga xos epik talqinlari va mohiyati belgilandi; **to'rtinchidan**, o'zbek folkloridagi bo'ri obrazi va u bilan bog'liq epik motivlar tizimining tarixiy asoslari va poetik vazifalari o'rganildi.

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi va metodi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy an'analarni takomillashtirish g'oyalarini qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari haqidagi qarashlari mazkur malakaviy bitiruv ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishida o'zbek xalq ijodida bo'ri obrazining badiiy talqiniga xos xususiyatlarni, ularning folklorda tutgan o'rni va vazifalarini, genezisini tadqiq etishda M.Afzalov, M.Alaviya, G'.Jalolov, K.Imomov, M.Murodov, X.Egamov, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo'raev, G'.Akramov, J.Yusupov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, D.O'raeva kabi folklorshunos olimlarning asarlari asosiy ilmiy-nazariy manba vazifasini o'tadi.

Malakaviy bitiruv ishida o'zbek xalq ijodida bo'ri obrazining badiiy talqiniga xos xususiyatlarni, ularning folklorda tutgan o'rni va poetik vazifalarini, genezisini tadqiq etishda **tarixiy-qiyosiy metod** asosida ish yuritildi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishning materiallari va ilmiy-nazariy xulosalari o'zbek folkloridagi zoomorf timsollar hamda jonivorlar totemi yoki kultining epik talqinlarini keng ko'lamda chuqur tadqiq etish uchun ilmiy-nazariy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. O'zbek folklorida, ayniqsa, epik janrlar tizimida turli xil jonivorlar sirasida

bo'ri obrazi ham muhim o'rin tutadi. Bo'ri totemi va kulti bilan aloqador mifologik qarashlar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan eng qadimgi madaniy obidalaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning e'tiqodiy qarashlarida saqlanib qolgan mifologik inonchlarga bo'lgan ulkan tafakkur qatlamlarida mavjuddir. Bu katta materialni yaxlit holda filologik yo'nalishda tadqiq etish tajribasi jonivorlar kultining mifologik ildizlarini oydinlashtirish hamda o'zbek epik folkloridagi jonivorlar obrazining poetik talqinlarini o'rganishning keng imkoniyatlarini ochishi malakaviy bitiruv ishining **ilmiy-nazariy ahamiyatini** belgilaydi.

Chiqarilgan ilmiy xulosalardan o'zbek folklorshunosligida bo'ri obraziga xos badiiy xususiyatlarni ilmiy tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarida, akademik listey va kasb-hunar kollejlarida, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti fani bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, ma'ruzalar o'qishda, xususan, totem jonivorlar haqidagi afsonalar, hayvonlar haqidagi ertaklar mavzusi bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda, o'zbek folkloridan o'quv qo'llanmalari, majmualar yaratishda keng foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi va sinovdan o'tishi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi Buxoro davlat universitetining O'zbek filologiyasi kafedrasida bajarilib, uning 2014 yil 7 maydagi maxsus yig'ilishida muhokama etilib, tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya qilingan.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Ish bosmada 53 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB

O'ZBEK XALQINING BO'RI BILAN BOG'LIQ E'TIQODIY QARASHLARI GENEZISI

1.1. Bo'rining turkiy xalqlar totemi sifatida qaralishi

Juda qadimda, hali qabilachilik tuzumi qaror topmagan davrlarda odamlar o'zlari bilan jonli va jonsiz narsalar o'rtasida muayyan qarindoshlik aloqalari bor deb o'ylaganlar. Ana shunday e'tiqodiy qarashlar asosida har bir urug'-qabilaning muayyan jonivor, o'simlik yoki narsa-hodisadan kelib chiqqanligi haqidagi ibtidoiy mifologik tasavvurlar tizimi – totemizm kelib chiqqan. Turkiy xalqlar, jumladan, qadimgi ajdodlarimiz ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it kabi hayvonlarga, ayrim qushlarga va parrandalarga e'tiqod qo'yganlar. Shular orasida ot va bo'rini totem hayvon sifatida alohida e'zozlashgan.⁷ Totem – u yoki urug'ning e'tiqod qo'ygan himoyachisi hisoblanadi. Totemizm esa insonlarning biror hayvon yoki o'simlik turi bilan o'zini qondosh deb bilishdan iborat ishonch-e'tiqodi tizimidir.

Turklar va mo'g'ullar o'zini ko'kturk – osmon bo'rilaridan paydo bo'lgan deb hisoblashishgan. Ular bo'rini o'zlariga ajdod deb bilishgan. Ko'rinadiki, bo'ri totemiga ishonch islomgacha amal qilgan esa-da, uning ildizlari hozirgacha saqlanib kelmoqda. Bo'ri totemiga shonch nafaqat turkiy xalqlar, balki Evropadagi ayrim xalqlar orasida ham uchraydi. Jumladan, qadimgi rimliklarning ishonchiga ko'ra, Rim asoschilari bo'lgan Romul va Remini ona bo'ri emizgan.

⁷ Имомов К, Мирзаев Т, Саримсоқов Б, Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.44.

O'zbeklarning bo'ri bilan alokador mifologik qarashlari qadimgi turkiy qavmlar totemistik tasavvurlarining evolyustion hosilasi ekanligi ayonlashadi.

Xalqimizning bo'ri totemiga ishonchi izlari hozirgacha ayrim an'anaviy urf-odatlarimiz misolida sezilib turadi. Masalan, hozirgacha tishi bilan tug'ilgan chaqaloqlarga bo'ri nomi bilan bog'lab ism qo'yish odati saqlanib kelayotir. Bunday bolalar, odatda, rizqli bo'ladi, deya yaxshi irim qilinadi. Tish bilan tug'ilgan o'g'il bolaga Bo'rivoy, qiz bolaga esa Bo'rigul deb nom qo'yadilar.

Bo'ri ismi insonga baxt-omad, obro'-e'tibor keltiradi deb qaralgan. Shuning uchun yangi tug'ilgan chaqaloqqa bo'ri nomi bilan bog'liq ism qo'yish odati keng tarqalgan. Darhaqiqat, bo'ri nomi bilan atalgan va elu yurtida shuhrat qozongan kishilar ko'p. Bo'ri baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Bo'ri Sodiq o'g'li kabi xalq oqinlari ham shular jumlasidandir.

Mashhur o'zbek xalq eposi "Alpomish"da shoh Boybo'ri obrazi uchraydi. Boybo'ri – qutlug' bo'ri degani.

"Kuntug'mish" dostonida Gurkiboy ismiga duch kelish mumkin. U Kuntug'mish va Xolbeka o'g'li. Doston syujetidan ma'lumki, Mug'ol tog'ida Kuntug'mish va Xolbeka ikki o'g'il ko'radi, biroq karvonboshi Azbarxo'janing xiyonati tufayli ular bir-biridan ajralib qolishadi. Azbarxo'ja Kuntug'mishni mast qilib, Xolbekani olib ketadi. O'ziga kelgan Kuntug'mish Tajan daryosidan kechib o'tish chog'ida bir o'g'ilchasini bo'ri (gurk)ga, boshqasini nahang baliqqa (mahiga) oldiradi. Yaxshiyamki, shu atrofdagi cho'ponlar va baliqchilar bolalarni qutqarib olishadi va ularga ism qo'yishadi. Olim sayyod degan baliqchi nahang yutgan bolani o'ziga farzand qilib olib, unga Mohiboy (Baliqvoy) deb, o'n bir cho'pon esa bo'rining og'zidan qutqarib qolgan bolaga Gurkiboy (Bo'rivoy) deb nom berishadi.

Dostonda Gurkiboy bosiq, vazmin, aqlli yigit sifatida aks ettirilgan. Bu bilan xalqning bo'riga nisbatan e'tiqodiy munosabatda ekanligi yana bir karra sezilib turadi. Mohiboy esa baliq kabi shaddod va quv, tutqich bermas yigit ko'rinishida gavdalantirilgan.

Odamlar o'lgan bo'rini, albatta, insonday e'zozlab, dafn qilganlar. Jasadini hech vaqt ochiq qoldirmaganlar. A.A.Popovning ma'lumotiga qaraganda, yoqutlar o'lik bo'rini tashlab yubormaganlar, balki uning jasadini daraxtga osganlar.

Bo'ri-ajdod haqidagi totemistik mifning eng ko'hna variantlaridan biri “usun” deb atalgan qadimgi turkiy urug` folklorida qayd qilingan. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida yashagan usun qabilasida milodning ilk asrlarida bo'ri sutini emib ulg`aygan bola haqidagi totemistik afsona aytiladi. Bu afsonada hikoya qilinishicha, yangi tug`ilgan chaqaloqni ko'tarib yurgan bir kishi bolasini maysa ustida qoldirib, o'zi biror egulik topish umidida daraxtzorga kirib ketadi. Qaytib kelib qarasa, bir ona bo'ri haligi chaqaloqni emizayotgan emish. Usunlar ana shu bo'ri sutini emib ulg`aygan bolaning avlodlari deyiladi.

M.Jo'raev “Alpomish” dostonida nomi tilga olingan Boysun etnonimining genszisini ham bo'ri haqidagi qadimgi turkiy miflarga bog`laydi. Yana u Boybo'ri – bo'ri qabilasi yoki bo'ri qavmi ma'nosidagi etnik atama deb hisoblaydi.

Bo'ri-ajdod haqidagi qadimiy totemistik mif syujetining ayrim motivlari, shuningdek, bo'ri kultiga sig`inish bilan aloqador udumlar, ya'ni totemistik mifning e'tiqodiy inonch shakliga aylangan ko'rinishlari asosida keyinchalik mustaqil syujetli afsona va rivoyatlar yuzaga kelgan. Bo'rining tana a'zolaridan magik ashyo sifatida foydalanish va tushda bo'ri ko'rsa yaxshilikka yo'yish an'anasining kelib chiqishi haqidagi og`zaki hikoyalar ham shular jumlasidandir.

Bo'ri totemi bilan bog`liq qadimiy xalq qarashlari ko'hna miflar tarzida hikoya qilinibgina qolmasdan, uning mohiyati turli ritual xatti-harakat va magik amallar vositasida namoyish etilgan, ya'ni ibtidoiy marosimlarning tarkibiy qismi sanalgan totemistik raqslar orqali ham ifoda qilingan.

Bo'ri-ajdodni xotirlash, ov baroridan kelishi uchun bu homiydan madad tilash, uning haqiga qurbonlik qilish kabi marosimlarda totem-homiy tasviri tushirilgan ritual ashyolar yordamida bajariladigan amallar alohida magik

kuchga ega deb tasavvur qilingan. Shu tariqa totemistik miflarning moddiylashtirilgan ko'rinishi – bo'ri surati yoki bu jonivor obrazi bilan bog'liq mif syujetiga mos lavhalarni tasvirlash an'anasi kelib chiqqan.

Bo'rini totem-ajdod sifatida mo''tabarlashtirish an'anasining ilk kurtaklari turkiy xalqlar tarixinng Oltoy davrida namoyon bo'la boshlagan.

Qadimda ayollar bo'ri boshi tasvirlangan bilakuzuk taqishgan. Bu oddiy taqinchoq bo'lmagan, balki totemistik qarashlarga taalluqli marosimlarda magik ashyo sifatida qo'llanilgan. Bo'ri boshli bilakuzuk aslida uni taqqan ayolni ziyon-zahmatdan asraydigan magik vosita vazifasini o'tagan.

Totem tasviri turar joylar, ashyolar va mozorlarga qo'yiladi. Odamlar badanlariga ham totemlar tasvirini solganlar. Bora-bora totem hisoblangan hayvon yaratuvchi va asrovchi ekanligi haqidagi diniy e'tiqodlar zaiflashgan va uning o'rnini milliy tushunchalar egallagan. Shundan keyin u hayvonning butun tanasi yoxud biror a'zosi yalov va tamg'alarda etnomilliy ramz, tarixiy bir yodgorlik sifatida o'rin olgan.

Qadimgi turkiy xalqlarda har bir urug` tomonidan muqaddaslashtirilgan hayvon bo'lgan. Topinilgan jonzot go'shti eyilmagan, unga o'q otilmagan va tabiiyki, aslo ranjitilmagan.

Bo'ri totem sifatida qabul qilingani sabab ota-ona kabi xaloskor, yo'l ko'rsatuvchi, qahramonlarga yordam beruvchi, shavkatli, jasoratli, yaxshiliksevar jonzot sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, xalqimizning bo'ri bilan bog'liq afsona va rivoyatlarida u odamlarni barcha kulfatlar, kasalliklar va yovuzliklardan asrovchi homiy himoyachi sifatida tasvirlanadi.

Qadimgi turk asotirlarida bo'ri, rangiga ko'ra, Ko'k bo'ri, Oq bo'ri, Qizil bo'ri deb atalgan.

Afsonaviy O'g'uzxon kul rang bo'ridan tug'ilgan turkiylarning afsonaviy bobokaloni hisoblangani bois o'g'izlar kul rang erkak bo'riga topinishgan. Shu sababdan ko'k bo'ri O'g'uzxonning jangovar chaqirig'i sifatida qabul qilingan. X-XI asrlarda o'g'iz-qipchoqlarning asosiy totemi oq bo'ri bo'lgan.

O'zbek va qirg'izlar orasida bo'ri etnonimli urug` ham bo'lib, bu nom keyinchalik toponim tarzida saqlanib qolgan. Jumladan, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida Bo'rilik, Samarqand viloyati Payariq tumanida Bo'ri nomli qishloqlar mavjud. Tabiiyki, bu qishloqlarning nomi bo'ri urug`i nomidan kelib chiqqan. O'z navbatida, qayd etish kerakki, kelib chiqishi turkiy boshqirdlar totemi ham bo'ri bilan bog`liq bo'lib, «*bosh kurt*» – bosh bo'ri yoki *bo'ri kallasi* degan ma'noni bildirgan. Shuningdek, turkmanlar orasida *bo'ri*, *mejdek* (bo'ri ma'nosida), *gurt* (bo'ri) kabi etnonimlar uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **bo'ri to'g'risidagi mifologik talqinlar natijasida bo'ri haqidagi totemistik tasavvurlar bo'ri-ajdod kultiga doir miflar; homiy – ajdod haqidagi geneologik miflar; bo'ri totemiga topinuvchi urug`ning kelib chiqishi to'g'risidagi etnonimik afsonalar yuzaga kelgan.** Bo'riga topinish izlari o'zbek xalqining turli urf-odatlar va irimlarida ham bugungi kunga qadar ma'lum darajada saqlanib qolgan.

1.2. Xalqning bo'ri kultiga inonchi

Bo'ri kulti bilan bog`liq qarashlar ham mavjud. V.Moshkov gagauzlarda “Bo'ri bayramlari” bo'lganini aytadi. Bu bayramda ayollar teri bilan bajariladigan uy-ro'zg`or yumushlarini vaqtincha to'xtatib qo'yishgan. Ayniqsa, ko'ylak, po'stin kabilarni tikmaganlar. Agar tiksa, o'sha kiyimni kiygan kishini, albatta, bo'ri g`ajib ketadi yoki uning chorvasiga hamla qiladi deganlar. Bir ayol shu bayram arafasida jun yigirgan ekan, bo'ri kelib uning qo'zichog`ini eb ketibdi. Boshqa hech kimning moliga tegmabdi. Lekin V.Moshkov bo'ri bayramining aynan qachon o'tkazilganligi haqida aniq ma'lumot bermagan.

Bo'ri atributlari homilador ayollarni, chaqaloqlarni, bemorlarni himoya qilishiga xalq ishonchi mavjud. Befarzand ayollar farzand ko'ray degan irim bilan bo'ri yog`ini ichganlar.

O'zbeklarda bo'ri kulti bilan bog'liq ishonchlar ko'proq bola tug'ilishiga qadar amal qiladigan irimlarda kuzatiladi. Agar ayollar qiyin tug'sa, to'shagi ostiga bo'ri tishi qo'yib qo'yilgan. Yoki ko'zi yoriyotgan ayolning dardini engillatish maqsadida unga bo'riining quritilgan yuragidan tuyib tayyorlangan talqonni suvga ezib ichirishgan.

Samarqand tabiblari bo'ri panjasi bilan bemorning boshini silaganlar. Bo'riining tuyilgan suyagi shakar bilan aralashtirilib bemorlarga malham sifatida ichirilgan. Tabobatda yana bo'riining o'tidan ham foydalanilgan. U, asosan, bemorning og'riqli joylari terisiga surtilgan. E'tiborli jihati shundaki, shu kabi urinishlarning badiiy talqini folklor asarlarida ham uchraydi. Jumladan, o'zbek xalq dostoni "Avazxon"da shunday motiv mavjud. Avaz Maqotilni engadi. Biroq u dushmanning o'qidan yaralanadi. Shunda G'irotda Avazxonni Hulkar tog'ining yuqori baland cho'qqisiga olib ketadi. Shodmon va Asad merganlar Avazxonning yarasini ayiq o'tini, qashqir kartini, toshbaqaning moyagini olib, uchovini birga qo'shib aralashtirib, yumurtqa malham qilib davolaydilar.

Avaz tuzalgach, uchalasi yo'lga tushib, devlar makoniga etib boradilar.⁸

Bo'riining bosh chanog'iga kasal bolalarning qo'li suqib olingan. Yoki uning ostidan xasta bola uch marta o'tkazilgan.

Ba'zilar chaqaloqlarni uzoq umr ko'rsin degan niyat bilan to chillasi chiqquniga qadar bo'ri terisiga yo'rgaklashgan. Keyin unga Bo'riboy, Bo'rigul deb ot qo'yishgan.

Kimning bolasi chaqaloqligida og'ir dardga chalingan bo'lsa, uni yovuz kuchlardan himoyalash maqsadida bo'ri terisiga o'raganlar. Buryatlar ham bo'ri terisidan tabobatda foydalanishgan. Kasallarga undan maxsus chakmon tikib kiydirilgan. Qozon tatarlari esa shamollash kasalligida bo'ri dumidan foydalanishgan.

⁸ Мискол пари. Гулнор пари. Авазхон. Достонлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Б.303-375.

Qozoqlar, o'zbeklar bo'riining junidan, tishidan, tirnog'idan tumorlar qilib taqishadi. Tibbiyotda yana unga tegishli atributlardan magik vosita sifatida foydalanib kelishgani ma'lum. Jumladan, bo'ri terisidan, bosh suyagidan, tishi yoki tirnog'idan bolalarning qo'lga, bo'yniga, yotadigan beshigiga, kiyimlarining elka qismiga tasma-tumorlar tayyorlab ilib qo'yishgan. Lekin bunday tumorlarni faqat bolalarga emas, kattalar o'zlariga ham ishlatishgan. Ular "ko'zdan asrovchi" magik vositalar sifatida qaralgan. Ana shu sabab bo'ri qismlarini sotish irim qilingan. Uni faqat sovg'a qilish mumkin bo'lgan. Agar ayol kishi bo'ri qismlaridan biror narsani erkak kishiga sovg'a qilgudek bo'lsa, albatta, yonida unga atab do'ppi yoki belbog' ham tikib hadya qilishi shart sanalgan.

Ba'zi kishilar bo'ri terisidan o'ziga to'shak qilib yotgan. Bo'ri atributlari uylarning burchaklariga ko'milgan yoki ilib qo'yilgan.

Cho'ponlar bo'ri terisidan beliga himoyalovchi magik vosita sifatida tasma qilib taqqan.

Bo'ri faqat insonning o'zinigina emas, balki unga tegishli narsalarni (masalan, chorvasini ham) himoya qiladi deb qarashgan. Jumladan, Andijon qipchoqlari mollarini yuqumli kasalliklardan asrash maqsadida ularning bo'yniga bo'ri tirnog'ini osib qo'yishgan. Kasal mollarga ham shunday qilishgan.

Xivaliklar ekin maydonlarining hosilini asrash maqsadida uning o'rtasiga bo'ri kallasini yog'ochga suqib qo'yganlar.

O'g'rilikda gumon qilinganlarning aybini bo'yniga qo'yish uchun buryatlar o'g'rini "Qizil bo'ri olovida yoqamiz" deb qo'rqitishgan. O'zbeklarda esa o'g'rini topishda bo'ri juni olovga tashlangan va azayimxonlik qilingan. Bundan o'g'rini tutqanoq tutib azoblanishiga va u olganlarini qaytarib berishiga ishonilgan. Hatto buning natijasida o'sha o'g'ri tuzalmas dard orttirishi mumkin bo'lgan.

Bo'ringing yo'lni kesib o'tishi yaxshilikka yo'yiladi. Bo'rini tushda ko'rishsa, qurbonlik berishgan. Qadimgi germanlar Vuotan va Sti xudolariga bo'ridan qurbonlik bag'ishlashgan.

Turkiy xalqlarda bo'rini tush ko'rish omad va baxt belgisi deb qaralgan. Botir Isomuhammad tomonidan 2003 yilda chop etilgan "Tush ko'rish xosiyatlari" risolasida "Bo'ri – yovuz dushmandan darak. Tadorik ko'rish kerak" – deyilgan.⁹

Bozorda ko'p egulik sotayotganlarni ko'rsalar: "Bugun bo'rini ko'rganmisan-yo?" degan ibora ishlatishadi. Negaki, bo'rini ko'p ko'rishni, bo'ri ko'p bo'lgan yilni yaxshilik alomati, qut-baraka ramzi sifatida qabul qilishgan.

Qadimda bo'ri ob-havoga ham ta'sir ko'rsatadi, deb qaralgan. Lekin hozir ham quyosh charaqlab turgan bo'lsa-da, yomg'ir yog'sa, bolalar qiyqirib-qiyqirib quyidagi qo'shiqni aytishadi:

Bo'ri bola tug'di,
Ovchi uni quvdi.
Ushlolmay yugurdi,
Yomg'ir uni yuvdi.

Yoqutlar bo'rini qadimgi momaqaldiroq xudosi Uluu – Toyonaning o'g'li deb hisoblashadi.

Mars ham bo'ri ko'rinishida tasvirlangan. Gerodotning yozishicha, nevrlar biror qudratga ega bo'lish uchun yilda bir marta bo'riga murojaat qilganlar.

Bo'ri bilan bog'liq inonchlar ruslar, ukrainlar va beloruslarda ham mavjud. Shuningdek, Kavkaz xalqlari: armanlar, gruzinlar, abxazlar, avar va kurdlar orasida ham uchraydi. Shimoliy Amerika hindularida ham.

Turk va mongol qabilalari orasida bo'riga inonch birmuncha keng tarqalgan bo'lgan. Ularda bo'ri, aksincha, homiy va himoyachi sifatida talqin

⁹Ботир Исомухаммад. Туш кўриш хосиятлари. Янги замон туш таъбирлари. – Т.: Истиклол, 2003. – Б.64.

etiladi. U barcha baxtsizlik va yomonliklardan, kasalliklardan asrovchi sanaladi.

Shuni ham aytish kerakki, bo'ring ilohiy xususiyatlariga inonch boshqa hayvonlarning shunday xususiyatlariga ishonchdan deyarli farq qilmaydi. Bo'ridan qo'rqqanlar, uning hujumidan himoyalanihga uringanlar, chorvani asrashga intilganlar.

Bo'rini uchratish yomonlik alomati sanalgan. Sababi, bo'ri yovuz kuch ramzi sifatida qaralgan.

Bo'ri qonidan qishda qorga sepganlar, yozda esa erga sepganlar. Agar bo'ri qonining usti ochiq qolsa, cheksiz baxtsizlik keltiradi, deganlar.

Qadimda bo'ri so'zini ko'pda ochiq ishlatmaganlar. Bu so'zni ishlatishda tabuga amal qilganlar. Shundan kelib chiqib, bo'ri so'zining o'rniga "jondor", "qashqir", "gurki", "talaymon" singari tabularni ishlatganlar.

Ch.Aytmatovning "Qiyomat" romanidagi bir epizod bu jihatdan alohida e'tiborni tortadi. Unda Bo'ston yosh o'g'ilchasini olib qochayotgan bo'rini otaman deb, o'z boshiga o'zi musibat soladi. U bo'ring o'rniga o'g'lini otib o'ldirib qo'yadi. Bu epizodga yozuvchi xalqning bo'rini o'ldirish yomon irim qilinishi bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari asosida yondashganligi ko'rinib turibdi. Romanda shu xalq inonchi o'ziga xos badiiy mahorat bilan ifoda etilgan.

Bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa haqida yaratilgan qo'yidagi topishmoq to'rt komponentlidir:

Tog'da talaymonni ko'rdim,

Suvda sulaymonni ko'rdim,

Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,

Yumalab yotgan toshni ko'rdim.

Demak, qadimda bo'riga nisbatan tabu bilan munosabatda bo'lingan. Uning nomi oshkora aytilmagan, sir tutilgan. Chunki "Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi" deb hisoblangan. Hatto bu hikmat maqolga aylanib,

hozirgacha saqlanib kelmoqda. Hozirgi kunda u ko'chma ma'nodagina hikmatlilik kasb etadi.

Umuman aytganda, bo'riga inonch turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lgan. Yuqorida sanab ko'rsatilgan xalqlarda bo'ri bilan bog'liq inonchlarning katta qismi zoolatrik xarakter kasb etgan, ya'ni hayvon kulti bilan bog'liq bo'lgan. "Bo'ri – xudoning iti", ya'ni "tengrining naxi" deyilgan.

1.3. Marosimlarda bo'ri ifodasi

Qadimgi turkiylar davridayoq bo'ri kulti bilan aloqador totemistik e'tiqodlar, ramziy marosim va odatlar kelib chiqqan ekan. Turkiylar yilda bir marotaba tog'ga borib, ajdodlari haqiga qurbonlik marosimini o'tkazishgan ekan. Agar turkiy qavmlarning totemistik mavzudagi etnogenetik afsonasida bo'ri o'g'li Ashina g'orda dunyoga kelgani yodga olinsa, turklarning marosimi bo'ri kultiga sig'inish tizimining uzvlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Bu marosim ritual ma'no kasb etgan bo'lib, turklar o'z ajdodlari – bo'ri xotirasini shu tariqa yod olishgan.

Qadimgi marosimlarni shomonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki shomonlar marosim tashkilotchilari va boshqaruvchilari sanalgan. Bo'ri esa shomonga bosh ko'makchi homiy sanalgan. Shuning uchun P.P.Batarov "Shomonlarning minib yuruvchi bo'risi bo'lgan" deb yozadi. Darhaqiqat, rus xalq ertaklarida bosh qahramonning bo'rida o'z ma'shuqasini yovuz kuch (yalmog'iz yoki Kosheydan) qutqarib olib ketishi va o'z makoniga sog'-salomat etib borishi tasvirlanadi.

Turk xalqlari bo'rini o'ziga bu dunyoda ham, u dunyoda ham homiy deb anglagan. Shu sababli turk qavmlari o'lim yuz berib, yaqinlaridan ajralganlarida marhumni bo'ri ixtiyoriga topshirish uchun bo'ridek ulib, bo'ridek vahshiy tusga kirib, bo'rinamo xatti-harakatlarni bajarganlar.¹⁰ Buni

¹⁰ Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

taniqli elshunos va folklorshunos Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asarida keltirilgan quyidagi she`riy parcha ham tasdiqlaydi:

Bo`ri bo`lib uldilar.

Yirtib yoqa turdilar.

Yig`lab-siqtab yurdilar,

Ko`z yoshlari mo`l bo`ldi.¹¹

Qadimgi davrga xos dafn qilish odati – murdalarni vafotidan so`ng uch kun o`tgach, maxsus boqilgan itlarga yoki qushlarga (bo`rilarga ham) em qildirib, suyagini etidan tozalatish va shundan so`ng ajralib qolgan suyaklarni “ostadan” yoki “ossuriy” deb ataluvchi maxsus idishga solib saqlab qo`yish odati amal qilgan.

Hozirgacha yangi mozordan uch kungacha xabar olib turish udumi garchi mifologik tasavvur-tushunchalar zahirida kelib chiqqan bo`lsa-da, unga amal qilishning o`ziga xos hayotiy zaruriyati ham bor. Zero, yangi qabrni it, bo`ri, chiyabo`ri kabi hayvonlar ochib, titib tashlamasligi uchun bu ish amalga oshiriladi.

Azroil-xalq tasavvurida, o`limning elchisi, jon oluvchi, qo`rqinchli mifik mavjudot. U topishmoqlarda bo`ri obraziga tenglashtirilgan.<sup>12</sup> “Bir bo`ri qo`yning qonini chiqarmay eb yotar” topishmog`ida Azroil obrazi vahshiy, qonxo`r, yovuz, odamlarning, ayniqsa, chorvador-cho`ponlarning tinchini buzadigan bo`riga shunchaki o`xshatilmagan. O`layotgan odam esa bo`ri changalida qiynalib jon berayotgan, beozor, ojiz va ilojisiz qo`yga o`xshatilishi ham bejiz emas. Darhaqiqat, odamzot Azroil oldida, qo`y esa bo`ri changalida o`limga taslim bo`lishga majbur. Bu mantiqiy – badiiy o`xshashlik topishmoqning o`ziga xos ta`sirchanligini ta`minlab turibdi. Chorvadorlar orasida yaratilgan bu topishmoqlar hayotiy tasvir-cho`ponlar turmush tarzini yodga soladi.

Sovchilar uyga qaytib kelishgach, ulardan “Bo`ri bo`ldimi, tulki”, deb so`rashgan. Bo`ri deyilsa – masala ijobiy hal bo`lganini anglatga, tulki- masala ochiq qolgani, hal bo`lmagani yoki tamoman rad javobi berilganini anglatgan.

¹¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Т.: Фан, 1960. – Б.60-62.

¹² Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

O'zbeklar orasida Navro'zdan keyingi uch kun ichida bolalar, yigitlar **“bo'ri o'yini”** degan bir o'yinni o'ynashi o'ziga xos an'anaga aylangan. Ular niqob kiyadilar, soqol-mo'ylov qiladilar. Bo'rinikiga o'xshagan quloq yasab kiyadilar. To'nlarning orqasini yig'ishtirib, burab dum qiladilar. Bu o'yinning nomini **“Gurgurgak”, “Bo'ri keldi”** deb ham aytaydilar. 10-18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar yuqoridagicha ko'rinishga kirib, uyma-uy yuradilar. Har bir uyga borganda qo'shiq aytadilar Uy egasi chiqqanida uni haligi “dum”i bilan uradilar. Har bir uy oldida ikki-uch daqiqagacha o'yin-kulgu qiladilar. Bolalardan ikkitasi xalta ko'tarib yuradi. Bekalar chiqarib bergan narsalarni o'sha xaltalarga soladilar. Qishloqni aylanib chiqqach, to'plangan narsalardan birorta taom pishirib, birgalashib eydilar va uy egalarining haqiga duo qiladilar. Ortib qolgan narsalarni faqirlarga tarqatadilar. O'yin o'ynalayotganda **“Bo'ri keldi – fayz keldi”** deydilar.

Navro'z bayramida “bo'ri keldi” o'yini o'ynalishi bejiz emas. Chunki qadimgi turkiylar navro'zni “bo'zkurt kuni” deb ham atashgan ekan.¹³ Ma'lumki, azal-azaldan bo'rini muqaddas jonivor sifatida e'zozlab kelgan turkiy qavmlar nazarida qish-qirovli kunlar o'tib, to'kin-sochin ko'klam kelishi ham ana shu mo'tabar jonivor homiyligi mahsulidir. Shu bois, ular yilboshini ulug' ajdodlari – muqaddas ko'k bo'ri bilan uchrashgan sharofatli kun sifatida g'oyat qadrlaganlar.

Xalqimizning to'y va sayllarida an'anaviy tarzda tashkil qilinadigan “ko'pkari” (“uloq”) o'yini ham aslida serhosillik g'oyasi bilan aloqador ramziy o'yin bo'lgan. Olimlarning fikricha, ko'pkari o'yini totemistik tasavvurlar bilan bog'liq holda kelib chiqqan.²⁵⁵ “Ko'pkari”ga o'xshash o'yin Sharqiy Osiyoda ham mavjud bo'lgan. Xitoyda bu o'yin “ko'klam ho'kizini burdalash” ma'nosini anglatuvchi atama bilan nomlangan bo'lib, XIX asrga qadar bu o'yinni tashkil qilish uchun haqiqiy ho'kizni so'yishgan. Keyinchalik esa, ho'kiz shaklida yasalgan tulumdan foydalanish an'anasini kelib chiqqan. Bu o'yinni o'ynash orqali kelayotgan yangi yilning hosili mo'l bo'lishini ta'minlash” maqsadi ko'zda tutilgan.

“Ko'pkari” so'zi aslida **“ko'kbo'ri”** bo'lib, qadimgi turkiylar orasida

¹³ Жўраев М. Наврўз. – Т.: Фан, 2011.

mo''tabar sanalgan jonzot sifatida e'zozlangan bo'ri haqidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Chunki turkiy qavmlar afsonalariga ko'ra, O'g'uzxon **ko'kburi** bilan uchrashib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni o'rganib, farovonlikka erishgan kun yilboshi qilingani uchun o'sha bayramning ramziy o'yinlaridan birini ham muqaddas jonivor nomi bilan **"ko'kbo'ri"** deb atashgan. Bu so'z keyinchalik o'zgarishga uchrab, **"ko'pkari"** tarzida talaffuz etiladigan bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qadimgi turkiy qavmlarning bo'ri bilan bog'liq totemistik qarashlari mifologiya, marosim folklori va inonch-e'tiqodlarda o'z ifodasini topgan.

II BOB

XALQ NASRIDA BO'RI BILAN BOG'LIQ QARASHLARNING BADIY TALQINI

2.1. Afsonalarda bo'ri obrazi

O'zbek xalq afsonalarida ot, bo'ri, tuya, it kabi hayvon obrazlari turli badiiy-estetik vazifalarda keng talqin qilingan.

Afsonalarda bo'rining bir vaqtlar odam bo'lgani hikoya qilinadi. Aytishlaricha, bir kuchli avliyoning qarg'ishi tufayli u bo'riga aylanib qolganmish. Shuning uchun bo'ri odamni eshitadi va tushunadi, deb qarashgan.

Totemlar bilan bog'liq bir qancha geneologik afsonalar mavjud. Ularda u yoki bu urug` – qabilaning kelib chiqishi ko'pincha ona bo'ri obraziga bog'lab talqin etiladi. Bunday afsona turkiy xalqlar orasida ham uchraydi. "Ashina" afsonasi bunga misol bo'la oladi. Unda hikoya qilinishicha, xunnlarni arosatda

qo'yib tepasiga bostirib kelgan dushman katta-yu kichikni shavqatsiz qilichdan o'tkazibdi. Faqat birgina o'n yashar bola ertalab maymunjon terish uchun o'rmonga kirib ketgani bois, joni omon qolibdi. Biroq qabilani yanchib, uning bor boyligini o'marib, chang-to'zon solgancha ketib borayotgan dushmanni o'z yaqinlari deb o'ylagan bolakay ular ketidan yugurib etib olibdi. Lekin dushman uni ham ayab o'tirmabdi va bolaning qo'l-oyoqlarini chopib, ko'l bo'yidagi bir o'tloqqa tashlab ketishibdi. Bu voqeani uzoqdan bir bo'ri ko'rib turgan ekan. U qo'l-oyoqlari chopilib, qonga bo'yalib behush yotgan bolani avaylab o'z iniga sudrab boribdi va uni go'sht berib boqibdi. Oradan bir necha yil o'tib, bola yigit bo'lib ulg'ayibdi. Bo'ri bilan uning o'rtasida iliqlik paydo bo'libdi. Ammo bolaning o'lmaganligidan xabar topgan dushman hukmdori uni yo'q qilish uchun odam yuboribdi. Shunda bo'ri bolani ko'tarib, sharq tomondagi toqqa qarab qochibdi va qoyalar orasidagi g'orda ular yashirinishibdi. Bo'ri Oltoy tog'idagi inida yigitdan o'nta bola tug'ibdi. Bu bolalar yarim bo'ri, yarim inson qiyofasida ekan. Ular ulg'ayib, bola-chaqa orttirib, keyinchalik har qaysi bir urug'ga asos solgan emish. Turklar ana shu bo'ri-insonlar avlodi deyiladi.

Afsonada aytilishicha, bo'rining o'g'illari orasida eng kuchli va chaqqoni Ashina bo'lgan. Shuning uchun ham u yangidan tiklangan urug'ning bosh sardori sifatida tan olingan. U o'z qarorgohiga bo'ri boshining tilla rangli tasviri tushirilgan tug' o'rnatirgan ekan.

Qabila boshlig'ining xos qo'riqchilari ham "bo'ri" deb atalgan ekan. Chinlik sarkardalar o'z qo'shinini turkiy qabilalarga qarshi jangga yo'llashdan burun **"ko'chmanchilarni haydab, bo'rilarga hujum qilish"** haqida ko'rsatma berishgan.

M.Jo'raev yozishicha, "Ashina" atamasining o'zi ham asli etnonim bo'lib, **"bo'ri mo'g'ul tilida, "shono // chono" deb atalgan. Unga "a" xitoy tilidagi hurmat ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha qo'shilgan. Demak, "Ashina" oliyhimmat bo'ri"** deganidir.

Buxorolik taniqli shoir Turdi Farog'iyning quyidagi misralarida Ashina haqidagi qadimgi turkiy mifga ishora bor:

Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,

To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling.

O'tmishda yarim o'troq hayot kechirgan o'zbek urug'lari (qirq, yuz, ming, qo'ng'irot, qatag'on va boshqalar) o'zbek xalqi to'qson ikki urug'dan iborat bo'lgan deb aytiladi. Shuning uchun xalqimizda "Tulum o'zbekning tubi bir" degan ibora bor. Afsonada aytilishiga ko'ra, to'qson ikki bola bir tulum (tulup) ichida tug'ilibdi. Ularning otasi bo'ri bo'lgan emish. To'qson ikki urug' shu bolalardan tarqalgan emish.

Boshqa bir afsonada tayoqlarini erga qadabdilar. Shu erdan darrov hassamuso o'simligi unib chiqibdi. Kimda-kimning ana shu o'simlik, ya'ni hassamusodan tayog'i (hassasi) bo'lsa, unday kishining oldiga hech vaqt ins-jinslar yaqinlashmasmish, chunki u sehrli emish-da. Yana kimda-kim "hassamuso"ni tutsa shayton, ins-jins, alvastilar undan qocharmish. It talamasmish, bo'ri yo'layolmasmish.¹⁴

Yana bir afsonada aytilishicha, qadimgi turkiylarning bobokaloni O'g'uzxon g'orda yashagan vaqtida qishdan qattiq qo'rqrar ekan. Yilning uch faslini qishloviga emish g'amlashga sarflarkan. Bir yili qish qattiq kelib, qor-qirovli kunlar cho'zilib ketibdi. O'g'uzxonning uch oy qishga mo'ljallangan ozig'i sob bo'libdi. Bir kuni quyosh chiqib, havo biroz isigan ekan, O'g'uzxon g'oridan chiqib qarasa, qishning dami qaytib, bahor ellari esayotibdi. Shunda u biror egulik topish umidida yo'lga chiqibdi. Yo'lda unga bir ko'k yol bo'ri yo'liqibdi.

– Ha, O'g'uzxon, bu ilikuzildi kunda senga yo'l bo'lsin? – deb so'rabdi bo'ri. O'g'uzxon maqsadini bayon qilgan ekan, bo'ri:

– Hoy, O'g'uzxon, falon joydagi yo'l ayriga borsang, bir suruv qo'y, bir bog' bug'doy, bir tegirmon va bitta charx bor. Shularning hammasi seniki, qo'ylarni boqib ko'paytirasan, junidan charxda ip yigirib, o'zingga kiyimlik mato to'qiysan, bug'doy donidan sochsang, qishin-yozin noning muhayyo bo'ladi, – debdi.

¹⁴ Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб, 84-бет.

– O'g'uzxon ko'k yol bo'ri aytgan joyga borib qarasa, chindan ham o'sha narsalarning bari bor ekan. U qo'y boqishni, bug'doy ekib, dehqonchilik qilishni, tegirmonda un chiqarishni, charxda ip yigirib, mato to'qishni o'rganib olibdi. Bo'ri bilan uchrashgan kunini esa har yili bayram qiladigan bo'libdi. Navro'z "ko'k bo'ri kuni", ya'ni O'g'uzxonning ko'k yol bo'ri bilan uchrashib, ro'shnolikka chiqqan kuni ekan.

Bu afsonada tosh asrida yashagan ajdodlarimizning turmush tarzi, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmadchilikning kelib chiqishi bilan bog'liq ko'hna e'tiqodiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Bobolarimiz tasavvuriga ko'ra, qish tabiatning ramziy o'limi, zulmat, sovuqlik, yovuz kuchlar xuruji bilan bog'liq bo'lsa, ko'klam butun hayvonot va nabotot olamining uyg'onishi, hayotning jo'sh urishi, yorug' kunlar boshlanishidir.

Demak, o'zbek xalq afsonalarida bo'ri obrazi ko'pincha totem jonivor sifatida badiiy talqin qilingan. Shuning uchun ko'pincha bo'ri obraziga geneologik afsonalarda u yoki bu urug' – qabilaning kelib chiqishi bog'lab talqin etiladi. Bunday afsonalar o'zbeklar orasida ham uchraydi.

2.2. Ertaklarda bo'ri obrazi talqini

Xalq ertaklarida ko'pincha totem sanalgan jonivor (turkiy xalqlarda bo'ri yoki it)dan ko'payish motivlari an'anaviylik kasb etganligi kuzatiladi. Bo'ri totemiga aloqador ertaklar ham anchagina. "Cho'loq bo'ri", "Bo'ri qiz" kabi ertaklar shular jumlasidandir. O'zbek xalqining "Cho'loq bo'ri" ertagida totemistik qarashlar izi kuzatiladi. Unda bo'rining insonga homiyligi badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Ertak mazmuni quyidagicha: "Bir boyning uch o'g'li bor ekan. Boyning katta bog'i ham bor ekan. Bog'ida bir tup chinori bor ekan. Bu chinor tilladan ekan. Har kuni bir bargi yo'qolib qolar ekan. Boy g'azablanib, katta o'g'lini poylatibdi. Ertasiga o'rtanchasini poylatibdi. Uchinchi kuni eng kichkinasini qo'yibdi. O'sha kuni bir tilla qush kelib, chinorning bitta bargini uzib ketibdi. Kichik o'g'li: "Ota, bir tilla qush kelib, bargini uzib ketdi. Otishga

ko'zim qiymadi", – debdi. Otasi uch o'g'liga g'azab qilibdi: "Topsalaring topganing, topmasalaring boshlaring o'limda", – debdi. Ikki o'g'li kulcha-ko'machini g'amlab, yo'lga ketibdi. Eng kichigi hech narsa olmasdan yig'lab ketibdi.

Uch ayrilish yo'lga borishibdi. U yerda bir tosh bor ekan, u toshga: "borsa kelmas", "borsa kelar", "borsa xatar" deb yozib qo'yilgan ekan. Eng kattasi "borsa kelar"ga, o'rtanchasi "borsa kelmas"ga, kichigi "borsa xatar"ga ketibdi. Kichigi bir suvning bo'yiga borib, bir dona nonni suvga tegizib yeb o'tirgan ekan, bir cho'loq bo'ri kelib qolibdi. Qo'rqqanidan nonning yarmini bo'riga beribdi.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida: "Agar inson o'zi eb turgan kulchasining yarmini birovga bersa – saxiy, to'lig'icha bersa – axiy" hisoblanadi deb ko'rsatiladi. Bunday insonlar esa Olloh nazariga tushib, uning mehriga sazovor bo'lishi bildiriladi. Demak, ertakda kenjaning eb turgan nonidan yarmisini bo'riga berishi evaziga uning marhamatiga erishishi shunchaki emas. O'tmishda odamlar bo'rini "tangri" deb qaragani esga olinsa, kenjaning bevosita tangri nazariga tushgani ayonlashadi.

Kenja o'rnidan turgan vaqtda: "Qayoqqa borasan?" – deb so'rabdi bo'ri. "Borsa xatar"ga boraman, – debdi yigit. Bo'ri: "Borsa xatar" olti oylik yo'l, yetolmassan. Ustimga mingin, ko'zingni yumgin, olti hatlab yetkazay, – debdi. Bola shunday qilibdi. Bo'ri: "Ko'zingni och", – debdi.

Ko'rinadiki, ertakda yigit bevosita bo'rining ko'magi bilan sirli makonga kirib borib, sirli narsalarni qo'lga kiritadi. Bunda ko'zning yumilishi ham ramziy ma'noga ega. Zero, hozirgacha "bu dunyoni tark etish va o'liklar mamlakatiga borish" tushunchasi "bu dunyodan ko'z yumibdi" iborasi bilan yuritiladi.

Bola ko'rsa, taxt tagida turibdi. Bo'ri: "Qirq pog'onali shotiga chiqasan, qushni olsang, chakkasini olma", – debdi. Bola qushni olibdi. "Uzoq yo'lda yerga qo'yamanmi", debdi-yu, chakkasini ham olibdi. Chakkasida qo'ng'iroqlar bor ekan, jarang-jarang qilibdi. Vazirlar bolani qo'lga tushirib olib,

podshohning oldiga olib boribdilar. Podshoh: “Sen qaysi eldan kelding?” – debdi. “Bog`bondan keldim”, – debdi bola. “Nima uchun kelding?” – debdi podshoh. “Qush uchun keldim”, – debdi bola. “Qush uchun kelgan bo`lsang, Mag`ribda bir podshohning qizini olib kelib bergin, qushimni beraman”, – debdi podshoh.

Bola qaytib pastga tushibdi. Cho`loq bo`ri: “Kallasi katta boyvachcha, nima ish qilding?” – debdi. Bola bo`lgan voqealarni aytib beribdi. “U qizning shahri sakkiz oylikdir. Ustimga min, ko`zingni yum!” debdi bo`ri va sakkiz hatlab bolani manziliga etkazibdi. Bola o`zini taxt tagida ko`ribdi.

Qizni olsang, ro`molini olma, ro`molini olsang, qizni olma, – deb o`rgatibdi bo`ri. Bola chiqib, qizni uxlab yotgan yeridan olibdi. Uzoq yo`lda boshyalang olib ketamanmi?” deb ro`molini ham olibdi. Tag`in qo`lga tushibdi. Uni podshohning oldiga olib kirishibdi. Podshoh: “Falon joyda yalmog`iz kampirning bir oti bor, shuni olib kelib bersang, so`ng qizimni beraman”, debdi.

Bola bo`rining oldiga chiqib: “To`rt oylik yo`lda bir ot bor, shuni olib kelib bersang, qutulasan, deydi”, – debdi. “Ustimga min, ko`zingni yum!” – debdi bo`ri. To`rt hatlab unga ham olib boribdi. Ko`zini ochsa, o`zini bir Chagalimozandaronda ko`ribdi. Bo`ri: “Yer tagidan teshib kirasan, oxurning yonidan chiqasan. Bosh chiqargan vaqtingda ot bir kishnaydi. Kampir yotgan yeridan bezovta bo`lib chiqib, otini uradi. “Haromgina o`lgur, sen nimaga kishnay berasan, nimani bilding”, deb urib-urib kirib ketadi”, – debdi.

Bola dastlab bo`rining aytgan gaplarini, shartlarini bajarmagani uchun tashvishi ortgan edi. Shuning uchun bu gal u bo`riga quloq soladi. Bo`rining aytganlarini u aytganidek bajaradi. Otni olib chiqadi. Biroq bo`ri ikkalasi podshohning oldiga jo`nabdi. Yo`lda bo`ri: “Ey, kallasi katta boyvachcha, shu otni podshohga berasanmi?” – debdi. “Nima qilamiz?” – debdi bola. Bo`ri: “Bir yumalab bundan ham yaxshi ot bo`laman. “Bitta ot deb edingiz, ikkita qilib keldim”, deysan. “Tanlab oling”, deganingda, meni tanlab oladi. Sen qizni mingashtirib olib ketasan. Orqangdan men ko`k kaptar bo`lib

uchib, yetib olaman, – debdi. Bola bo`ri aytganini bajo keltiribdi.

Sehrli-fantastik ertaklarda evrilish xususiyatiga ega bo`ri<sup>15</sup> obrazi keltiriladi. Bu ertakda ham bo`rining bir ko`rinishdan ikkinchi ko`rinishga, ya`ni bo`ri ko`rinishidan ko`k kaptar ko`rinishiga evrila olish xususiyati aks ettirilgan. Negaki, qadimgi insonlar odam o`lgach, ruhi bo`ri yo qush ko`rinishiga evriladi, deb tushungan.

Ertakda yigit podshohning oldiga kiribdi va: “Ikki otdan bittasini tanlab oling”, – debdi. Podshoh cho`loq bo`rini tanlab olibdi. Yigit qizni olib ketibdi. Orqasidan ko`k kaptar bo`lib, bo`ri yetib olibdi. “E, kallasi katta boyvachcha, shu qizni podshohga berasanmi?” – debdi u yana yigitga. “Nima qilamiz bo`lmasa?” – debdi yigit. Men bir yumalab bir qiz bo`lay. Podshoh meni tanlaydi. Qizni ham, qushni ham olib keta berasan. Men orqangdan ko`k kaptar bo`lib uchib boraman, – debdi bo`ri. Bola shunday qilibdi. Bola: “Bitta qiz deb edingiz, ikki qiz keltirdim, tanlab oling”, – debdi. Podshoh cho`loq bo`rini tanlab olibdi. Uchallasini olib yigit jonab keta beribdi. Bola qush, qiz va otni olib, boyagi yeriga – non yegan yeriga yetibdi. Bo`ri ham yetib kelibdi. Cho`loq bo`ri: “Bir qush deb eding, shuncha narsali qilib qo`ydim, bergan yarim noningga rozi bo`lgin”, – debdi-yu ko`zdan g`oyib bo`libdi.

Ertakda bo`rining inson kabi gapirishi va insonga aqlli maslahatlar berishi, yo`l-yo`riqlar ko`rsatishi hamda sirli tarzda paydo bo`lib, yana sirli tarzda ko`zdan g`oyib bo`lishi uning “epik homiy” sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

Ertak so`ngida bla akalarini istab, “borsa kelar”, “borsa kelmas” ko`chalarga kirib, ularni topibdi. Biri oshpazga o`t yoqar, biri hammomda go`loh ekan. Akalarini chaqirib: “Endi ketaylik”, – debdi. Yo`lga tushibdi. Yo`lda ikkala akasi ukasini o`ldirishga maslahat qilibdi. Ukasining ko`zini o`yib, bir chuqurga tashlabdilar. Bari narsalarini olib jo`nabdilar. Otalarining oldiga boribdilar. Otasi kichik o`g`lidan bexabar, to`y-tomoshalarni qilib beribdi. Qiz, qush, otlar ovqat yemay, yig`lasharmish. “Nimaga bunaqa qilasizlar?” – deb so`rabdi boy. Bilsaki, bularni kichkina o`g`li olib kelgan ekan. Akalari uning ko`zini o`yib, chuqurga

¹⁵ Гулиқоҳқаҳ пари. Ўзбек халқ фантастикаси. VI-китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. –Б.120-135.

tashlab kelgan ekanlar.

Qiz ularni boyning kichik o`g`li yotgan joyga boshlab olib boribdi. Qarasalar, bola chala o`lik bo`lib yotgan ekan. Olib kelibdilar, tabibga ko`rsatib davolagandan so`ng, boy ikkala katta o`g`lini jazolashga buyuribdi. Boy qizni kichik o`g`liga beribdi. Xiyonat qilganlar jazolarini tortibdilar. Bular esa murod-u maqsadiga yetibdilar.¹⁶

Umuman aytganda, bo`ri tulki, sher, quyon, qo`zichoq, echki, qo`y, ho`kiz, tuya xo`roz, it kabi hayvonlar qatori majoziy ertaklarning doimiy allegorik personajlari hisoblanadilar. Ularning har biri o`ziga xos fe`l-atvori bilan ertak tarkibidagi ma`lum estetik vazifani, g`oyaviy maqsadni ochishga xizmat qiladi. Chunonchi, sher – hayvonlar shohi, eng kuchli jonzot. U aksaran zolim va qonxo`r podsho timsolini ifodalasa, bo`ri – aqli kalta, nodon, laqma, zo`ravon saroy amaldorlari qiyofasida harakat qiladi. Tulki esa ayyor, firibgar, aldamchi, faqat o`z manfaatini ko`zlab yashovchilarning tipik qiyofasini ifodalovchi majoziy obraz bo`lsa, ilon – ichi qora, niyati buzuvchi, tilyog`lama va sovuqqon kishilar timsolida qo`llanadi. Qarg`a – donishmand, tadbirkor; quyon – qo`rqoq; xo`roz va echki – dono; ho`kiz – mehnatkash, chidamli; it – vafodor, qo`riqchi; ot – eng vafoli hamdam, yoqimli va sadoqatli do`st; eshak – farosatsiz kishilar sajiyasida obrazlantiriladi. Ko`pincha uy hayvonlari – ijobiy, yovvoyi va yirtqich hayvonlar salbiy sajiyalarda majoziashtiriladi.

Bo`ri xalq ertaklarida ham ijobiy, ham salbiy qiyofada gavdalantiriladi. Totemistik g`oyalar yaratilgan ertaklarda u ijobiy qiyofada gavdalansa, chorvachilik bosqichida yaratilgan ertaklarda u chorvaga qirg`in keltiruvchi, qonxo`r va vahshiy hayvon qiyofasida aks ettiriladi. Masalan, “Och bo`ri” ertagida bo`ri aqli kalta, nodon, laqma ko`rinishda talqin qilingan. U bir kuni xo`rozni ushlab olib, uni emoqchi bo`libdi. Xo`roz esa unga meni piyoz va kashnichsiz esang, maza qilmaysan debdi. Bu gapga ishongan bo`ri xo`rozni shu erda qoldirib, piyoz bilan kashnich qidirib ketibdi. Xo`roz bundan foydalanib qochib qolibdi.

Bo`ri yana yo`lida qo`zichoqqa duch kelib, uni ham ushlab olibdi va

¹⁶ Cho`loq bo`ri / O`zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. II jild. – T.: O`qituvchi, 2007. – B.206-208.

emoqchi bo'libdi. Qo'zichoq esa meni tuzsiz eb bo'lmaydi degancha bo'rini chalg'itib, qochib ketibdi. Bo'ri tuz axtarib ketar ekan, otga duch kelibdi va uni ham emoqchi bo'libdi. Ot bo'riga: "Otam o'lmasdan avval tuyog'imga bir nasihatnoma yozib qoldirgan edi, shu nasihatnoma senga tegishli, sen shuni o'qib olib, so'ngra meni eya ber", – debdi. Laqma bo'ri otning gapiga ishonib, uning tuyog'i ostiga engashibdi. Shunda ot qattiq tuyoqlari bilan bo'rini boplab tepibdi. Bo'ri til tortmay voqea joyida o'libdi. Uning laqma va nodonligi boshiga falokat keltiribdi.

"Och bo'ri" ertagining boshqa yana bir variantida echki bo'ri changaliga tushadi va darhol bo'riga qarab shunday deydi: "Men sizni hofiz deb eshitib yurardim. Endi bir hofizlik qilsangiz, tovushingizni eshitayin, undan keyin esangiz armonim qolmaydi". Shundan keyin bo'ri xotirjam bo'lib, hadeb g'ingshiy beribdi. Bo'rining tovushini eshitib, to'rtta it etib kelibdi va bo'rini oldiga solib quvib ketibdi.

Xuddi shunday motivlar "Bo'ri bilan mergan" ertagida ham uchraydi. unda aytilishicha, bir mergan bor ekan. U mergan ovga chiqibdi. Bo'rini uchratib quvib ketibdi. Bir joyda bir chol xirmon sovurayotgan ekan. Bo'ri yugurib kelib cholga: "Ota, bir mergan quvib kelayotibdi, meni bekitib qo'ying", – debdi. Chol "xo'p" deb, bo'rini qopga solib, ustiga poxol yopib bekitib qo'yibdi. Mergan cholning oldiga kelib: "Hoy, chol, shu yerdan bo'ri o'tdimi?" – deb so'rabdi. Chol: "Men o'zim bo'ridan qo'rqaman, hech narsa ko'rganim yo'q", – debdi. Mergan cholning gapiga ishonib, ketib qolibdi. Bo'ri poxol tagidan: "Ota, meni quvib kelayotgan mergan ketdimi?" – debdi. Chol: "Ha, bolam, ketdi", – debdi. "Ketgan bo'lsa, meni qo'yib yuboring", – debdi bo'ri. Chol: "Xo'p, bolam", – deb bo'rining ustidagi poxolni olib tashlabdi. Bo'ri poxol tagidan chiqib: "Chol, chol, seni yeyman", – debdi. Chol qo'rqqanidan shoshib: "Meni yeguncha, molxonada qo'sh qo'chqorim bor, uni yegin", – debdi. Bo'ri sevinib molxonaga boribdi. Bo'ri qo'chqor qoshiga borsa, qo'chqor bo'ri boshiga suzib solibdi. Bo'ri yana cholning qoshiga kelibdi. "Jon, bobo, jonim bobo, seni yeyman", – debdi bo'ri. Chol: "Meni yeguncha, otxonada qo'sh otim bor, uni yegin", – debdi. Bo'ri

otning qoshiga borsa, ot ham uning boshiga tepib solibdi. Bo`ri yana cholning qoshiga kelibdi va “Jon bobo, jonim bobo, seni yeyman”, – deb takrorlabdi. Chol yana: “Meni yeguncha, otxonada qo`sh eshagim bor, uni yegin”, – debdi. Bo`ri eshak qoshiga borgan ekan, eshak uning boshiga zarb bilan tepibdi. Bo`ri yana cholning oldiga kelib: “Jon bobo, jonim bobo, seni yeyman”, – deb turganida, ikkovining oldiga tulki kelib qolibdi, chol bechora yig`lab: “Mergan bo`rini quvib kelayotgan edi, bo`ri mendan o`zini yashirib qo`yishni so`radi. Men uni qopga tiqib, poxol yopib bekitib qo`ydim. Mergan kelib: “Chol, chol! **Bo`ri ko`rdingmi?**” deb so`radi. Men bo`ridan qo`rqaman, o`tgani yo`q, – dedim. Mergan ishonib, ketdi. Poxolni olib bo`rini qopdan chiqarib qo`ysam, “Seni yeyman” deb meni mushkul holda qoldirdi”, – degan ekan, Tulki: “Ey, bo`ri o'rtoq, chol seni shunday o`limdan qutqarsa-yu, sen shunday qari cholni yeysanmi?” – deb dashnom beribdi. “Yur bo`lmasam” deb, bo`ri tulki bilan birgalikda cholning oldidan “Xayr, ota”, deb jo`nab ketibdi. Chol ham o`limdan qutulganiga xursand bo`lib qolibdi. Bo`ri bilan tulki boshlariga tushgan sarguzashtlarini aytishib ketaveribdilar. Bir shudgorga kelsalar, bir parcha quyruq yotgan ekan. Och qolgan bo`ri shoshilib, tulkiga: “Men shu dumbani yeyman”, – debdi. Tulki: “Yema!” – debdi. Bo`ri: “Nega yema deysan?” – deb g`azablanibdi. Tulki: “*Bir balosi bo`lmasa, shudgorda quyruq na qilur*”, uni yemagin”, – debdi. Bo`ri: “Men ham bir gap aytay, sen ham tushungin. Bir odam bozorga borgandir, go`sht-yog` olgandir, otini minib lo`killatib chopgandir, bir parcha yog`i shu yerda tushib qolgandir, yeyman”, – debdi. Tulki: “Yema!” deb ko`p yalinsa ham bo`ri ko`nmabdi. Tulki achchiqlanib ketaveribdi.

Shu o`rinda xalq orasida tarqalgan “Bo`rini ko`rdingmi – yo`q” iborasi bilan yana bir xalqona mashhur ibora “Bir balosi bo`lmasa, shudgorda quyruq na qilur?” ifodasi keltirilgan. Ertakda u tulki tilidan aytiladi.

Ertakning davomida hikoya qilinishicha, tulki ketgandan keyin bo`ri yog`ni yeyman, deb mergan qo`ygan qopqonga tushib qolibdi. Mergan bir katta tolning tagida poylab o`tirgan ekan. Bo`rining qopqonga ilinganini ko`rib, vaqti chog` bo`lib, kelib bo`rini ura boshlabdi. Kaltakning zarbiga bo`ri chiday olmay, sakrab

qopqondan chiqib, jon holatda bir daryoga boribdi. Undan suzib o'tib, daryo bo'yida u yoqqa-bu yoqqa qarab o'tlab yurgan qo'zini ko'ribdi, keyin otni, bir semiz eshakni ko'rib qolibdi. Ularni emochi bo'lgan ekan, ular tadbirkorlik bilan bo'ridan qutulib qolibdilar. Shunda bo'ri o'z-o'ziga: "Ko'rdingki, qo'zi, termuladi ikki ko'zi, senga kim qo'yibdi, qo'zini tuzlab yeyishni, uv-uv. Ko'rdingki, o'tlab yuribdi ot, ota-bobosidan qolgan xat, senga kim qo'yibdi uning vasiqasini o'qishni, uv-uv. Ko'rdingki, eshak, yoniga solding to'shak, senga kim qo'yibdi yo'rg'asini ko'rib boqishni, uv-uv", – deb yig'lab-yig'lab o'tin ustidan tushib sahroga qarab keta beribdi. Yurib-yurib ochligidan o'lib qolibdi. Chol bechora chuqur ichidan chiqib, o'tinini ko'tarib, u yoq-bu yoqqa qarab, shoshib bolalari yoniga qaytib boribdi. Bolgan voqeani bolalariga aytib beribdi. Bolalari "Dadam bechora bir o'limdan qolibdi-da" deb, otalarini dalaga chiqarmay qo'yibdilar.¹⁷

Ushbu ertak nomi "Bo'ri bilan mergan" deb nomlangan esa-da, unda mergan faol emas. Lekin bo'ri, haqiqatan ham, ertakning etakchi personaji sifatida ko'zga tashlanadi. Usiz ushbu ertak syujetini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Totem hayvonni himoyachi deb e'tiqod qo'yish ertaklarda echki, ho'kiz va xo'rozlarga dono va tadbirkor sifatlarini berishda namoyon bo'ladi, zarar bergan hayvonlar esa o'ta laqma va qo'rqqoq sifatida tasvirlangan. Demak, bu xildagi ertaklarda u yoki bu totem hayvon asosiy personaj, u doimo yaxshilik qiladi va yordam ko'rsatadi va voqealar rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu xildagi ertaklar asosida ovchi yo chorvadorning ayrim hayvonlarga nisbatan e'tiqodini oshirish, uni muqaddas bilib, o'ldirmaslikka chaqirish, o'z homiysiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashdan iborat didaktik g'oya yotadi.

Ertaklarning boshlanishida: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, **bo'ri bakovul** ekan, tulki yasovul ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, toshbaqa tarozidor ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan", – deyiladi va bo'ri bakovul bo'lgani aytiladi.

"Bahodir va ajdaho" ertagida sher, shoqol, bo'ri bolaga bittadan o'z

¹⁷ Bo'ri va mergan / O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. II jild. – T.: O'qituvchi, 2007. – B.20-23.

tuklaridan belgi yulib beradilar.¹⁸ Agar ertak qahramoni boshiga mushkul ish tushganda, shu tukni tutatsa, bu jonivor ko'z ochib-yumguncha etib kelib, yordam berishi tasvirlanadi.

“Opa-singillar” ertagida opa singlisini bir ko'lmak oldida “Bu suvdan ichma, bo'ri bo'lib qolasan” deb ogohlantiradi. Bundan ko'rinadiki, o'zbek xalq ertaklarida bo'ri obrazi suv bilan ham bog'lab talqin qilinadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ovchilik bosqichida paydo bo'lgan **totem** hayvonlardan bo'ri chorvachilik bosqichining oxirlariga kelib magik kuchga ega bo'lgan himoyachi emas, ayni paytda chorvadorning dushmani – vahshiy hayvon tarzida tasvirlanadi va ertaklarda salbiy ma'no kasb etadi. Darhaqiqat, chorvachilikning vujudga kelishi inson hayotida keskin burilish yasadi. Bu davrda insonning o'zini hayvondan farq qila boshlashi animizm va totemizmning emirilishiga yo'l ochdi. Chunki bu davrda inson o'ziga ishondi va hayvonlardan kuchli ekanini sezdi. Ana shu jarayon ertaklarda yangi g'oya, inson kuchiga ishonch tushunchasini vujudga keltirdi.

Sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi hayvonlar haqidagi ertaklarning majoziy ma'noga ega bo'la boshlashlariga sababchi bo'ldi. Natijada ularda hayvon-personajlarning mazmuni va munosabatlari bo'rttirildi, ziddiyatlar ijtimoiy-siyosiy ma'no kasb eta boshladi. Xullas, majoziy ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar zaminida vujudga kelib, tanqidiy vazifani ado etishga buysundirildi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettiruvchi ko'chma ma'nodagi personajlarga aylanadi. Bunday ertaklarning g'oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o'rinda turadi. “Bo'ri bilan tulki” ertagi ham majoz asosiga qurilgan ertak hisoblanadi. U zo'ravonlikka asoslangan jamiyatda shakllanib, shu turkumdagi ertaklar sirasiga kitradi. Shuning uchun ham undagi obrazlarda, voqea-hodisalar tasviri, ziddiyat mazmunida sinfiy munosabatlar o'z ifodasini topgan. Shu boisdan ko'pgina majoziy ertaklar shakl va mazmun e'tibori bilan masal janriga yaqin turadi. Chunki syujet asosida yotgan ko'chma ma'no hamda allegorik obrazlar tizimi ular uchun mushtarak hodisa sanaladi. Bu jihatdan

¹⁸ Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. –Б.8.

“Susambil” ertagi ham xarakterlidir. Unda tasvirlanishicha, uy hayvonlari yaxshi, farovon, tinch hayot kechirish maqsadida Susambilga ketadilar. Yo’lda eshak arilarga shunday deydi: “Ey ukalar, sizlar ham bizlarga o’xshab och qolib qiynalganga o’xshaysizlar. Bizning tanamizda shira qolgani yo’q. So’rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo’jayinlarimiz so’rib olgan. Agar ovqat kerak bo’lsa, biz bilan yuraveringlar”. Dialogdagi eshak nutqi hukmron sinflarga xos zulm, istibdodni fosh etadi. Demak, ertakdagi eshak va arilar majoziy obrazlar sifatida mehnatkash xalq vakillarini ifodalaydi. Undagi bo’rilar esa manman, takabbur, xudbin, g’alamis kimsalar qiyofasini o’zida ifoda etadi.

Ko’rinadiki, mehnatkash xalq o’zining ezuvchilarga qarshi bo’lgan nafrat va g’azabini ifodalash uchun majoziy ertaklardan foydalangan. Majoziy ertaklarning tematikasi turli xil bo’lib, ularda, asosan, adolat uchun kurash, erkinlik va ahillikka intilish, aqllilik va tadbirkorlik tantanasi hikoya qilinadi.

Turli xalqlar orasida keng tarqalgan “Bo’ri bilan tulki” turkumiga oid ertaklar o’zbeklar orasida ham ommalashib ketgan. Bunday ertaklarda asosiy voqea tulki bilan bo’ri o’rtasida bo’lib o’tadi. Tulki – o’ta ayyor, to’g’ri kelgan hayvonga firib bera oladigan majoziy obraz. U qonxo’r bo’ri bilan to’qnashganda uni goh kuldiradi, goh o’takasini yoradi, hatto dumidan ajralishi, nihoyat, o’limiga sababchi bo’ladi. Tulki o’zidan kuchsiz bo’lgan hayvonlar bilan uchrashganda esa zolim va ayyor sifatida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham u aldanadi va qo’lga tushadi. Bo’ri esa o’ta ketgan laqma, kaltafahm, ayni choqda zolim, qonxo’r, zo’ravonlar doirasida turib harakat qiluvchi shaxsning majoziy obrazidir. U doimo aldanib tuzoqqa ilinadi.

Bu xildagi ertaklar, asosan, ikki-uch epizoddan iborat bo’ladi. Epizodlar mantiqan o’zaro bog’langan bo’lib, ko’pincha syujeti asosida hajviy mazmun yotadi. “Bo’ri bilan tulki” ertagi bir xildagi ikki epizodning takror kelishidan tashkil topgan. Biroq ikkala epizod konfliktli yakunlangan bo’lib, voqealar davomida bir-birini to’ldiradi. Birinchi epizodda bo’ri og’zida bir bo’lak go’sht tishlab kelayotgan edi. Tulki: “Bo’rivoy, qaerdan kelyapsan?” – deganda bo’ri: “Popdan” – deb og’zidagi go’shtni tushirib yuboradi va go’shtni tulki ilib ketadi.

Epizoddagi voqea tulki, bo'ri kabi allegorik obrazlar qiyofasini ochadi va kulgini vujudga keltiradi. Uchrashuv epizodi ikkinchi marta takrorlanadi. Endi tulki go'sht tishlab kelayotgan edi: Bo'ri: – “Tulkivoy, qaerdan kelyapsan?” – deb so'raganda, “Popdan” deyish o'rniga, go'shtni mahkam tishlagan holda: “G'ijduvondan”, – deb javob berib qochadi. Takroriy epizoddagi to'qnashuv ayyorlik, o'ta laqmalik kabi illatlarni ta'kidlaydi va fosh etadi.

Syujet asosida yotgan o'tkir satira majoziy ertaklarni xajviy ertaklarga yaqinlashtiradi. Majoziy ertaklar mazmuni sodda, ayni choqda lo'nda ifodalangan bo'lib, bolalar tushunchasiga moslashtirilgan. Ko'pincha kompozitsion qurilma markazida bo'lgan asosiy epizod takrorlanuvchi bo'ladi.

Dostonlarda alp va bahodirlarning hayvonot olamiga mansub bo'lgan biya, kiyik, echki, bo'ri kabi jonzotlarni emib katta bo'lishi an'anasi epos qonuniyatlarining qadimiy izlaridir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarining syujet qurilishida faol ishtirok etadigan mifologik personajlardan biri bo'ri obrazidir. U ertaklarda keng badiiy talqin etilgani kuzatiladi.

Bo'ri obrazi ishtirok etgan ertaklarda qadimgi mifologiyaga aloqador evrilish motivi saqlangani alohida e'tiborni tortadi.

Epik bo'ri obrazi sehrli va hayvonlar haqidagi majoziy ertaklar hamda afsonalarda tutgan o'rni, shaklu shamoyili, mazmuni va asosiy badiiy vazifalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. O'zbek xalq epik asarlarida (afsona, ertak va dostonlarda) bo'rining etakchi qahramon, yordamchi personaj va raqib personaj bo'lib kelishi ko'zga tashlanadi.

III BOB

XALQ LIRIKASIDA BO'RI OBRAZI TALQINI

3.1. Xalq lirik qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi

An'anaviy o'zbek xalq lirikasining asl mag'zini sevgi, oila, farzand haqidagi o'y-fikrlar, qalb kechinmalari tashkil qiladi. Qo'shiqlardagi totemizm rudimentlarining badiiy ifodalari ham ana shu g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi:

Yuqoridan tushib kelsam,
Ikki bo'rining izi.
Ko'nglimni olib ketdi,
Shu qishloqning bir qizi.

Yuqoridan tushib kelish tarixan tog` kulti bilan bog`liq va bu kult turkiylar turmushida ham keng tarqalgan. Bu kult tasavvurlariga ko'ra, homiy ruhlar qir,

tepa, g`or, balandliklarda – yuqorida yashaydilar. Bo`ri turkiylar totemi sifatida shunday homiy kuchlardan biri sanaladi. Ikkilik magik raqam – juftning sinonimidir. Demak, ikki bo`rining izi magiya qonuniyatiga ko`ra, juft bo`rining o`ziga teng bo`lib, totemlarni juft ko`rgan kishi ham tez orada o`z juftiga etishmog`i, ya`ni oila qurishi mumkin, degan g`oyani ifodalashga xizmat qiladi.

Iz magiyasiga inonch butun jahon xalqlari orasida bor. U qadimiy va barcha xalqaro dinlar ta`limoti tarkibiga kirgan. Jumladan, Qur`oni Karimning “Toxa” surasida Somiriy Jabroil izi tushgan tuproqdan bir siqim olib, buzoq haykalchasiga sochganida, undan tirik buzoq kabi ovoz chiqqanligi aytiladi. Demak, Jabroil iziga uning jon baxsh etish xususiyati ko`chadi.

Quyidagi qo`shiq cho`ponlar repertuarida uchraydi. Unda bo`ribosar it ta`rifi keltirilgan:

Shu qishloqning tomida mo`risi bor,
Yotish urning salqinida **bo`risi** bor.
Olar yorim mol berib ob qo`yganman,
Sandaqadan ikkita cho`risi bor.

Xalq qo`shiqlarida bo`ri obrazi yo o`z ma`nosida, yo ko`chma ma`noda keltirilishi kuzatiladi. Quyidagi qo`shiqda ham bo`ri obrazi o`z ma`nosida, faqat turli sifatlashlar orqali ifoda etilmoqda:

Anov qirning bag`rida **tarlon bo`ri**,
Bosib emas bo`lurmi **orlon bo`ri**?
Tunov kuni bir so`zing eshitib edim,
O`pka qora qozondek shundan beri.¹⁹

Quyidagi qo`shiqda bo`ri totemiga ishonch izlari yaqqol sezilib turadi:

Bo`ri degan bakovul,
Bakovulga kim tegar?
Tulki degan yasovul,
Yasovulga kim tegar?
Ayiqlik degan otamiz,

¹⁹ Оқ олма, қизил олма, 182-бет.

Otamizga kim tegar?
Qashqir degan nemiz,
Uni bosib eymiz.

Folklorshunos A.Musaqulovning yozishicha, turkiy xalqlar tarixida ot va bo'ri totemi qatorida ayiq totemi ham rivoj topgan. Shuningdek, etnografik adabiyotlarda bir totem vakillari dushmanlik maqsadida boshqa guruh totemlarini eganliklari aytiladi. Yana olimlarning fikricha, qadimda bir urug`dan tarqalgan turli aymoq vakillari fratriylarga birlashganlar. Bunda bosh urug` va unga yaqin urug`lar totemlari bo'yicha ham birlashganlar. Shuningdek, urug`lar birlashmasi bilan boshqa birlashma o'rtasida doimiy ziddiyat mavjud bo'lib, "biz" tushunchasi doimo ularga qarshi qo'yilgan. Ana shu jihatlardan qaralsa, qo'shiqdagi ayiq – bosh urug` totemi, bo'ri va tulki – fratriy totemlar, qashqir – dushman totem ifodasi ekanligi oydinlashadi.

Bo'ri ekan deganda
Bo'ri ekan, deydi-yo,
Shu vaqtgacha uyingizni
Ko'rganim yo'q deydi-yo.
Endi ko'rsam guldasta
To'ri ekan, deydi-yo.²⁰

Qo'shiqda "Bo'ri ekan deganda, bo'ri ekan" deyish orqali xalq orasida "Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinar", ya'ni u keladi degan ishonchga ishora qilinayotir. Ana shu ishonch sabab ko'pincha bo'rining nomini ochiq-oshkor aytmaganlar. Uni "uv" ham deb yuritishgan. Quyidagi qo'shiqda bevosita shunga ishorani kuzatish mumkin:

Manov tog`ning boshida **uvlar** o'tgan,
Bu uvlarni mergan otsa qulab ketgan.
Sen esimga tukshganda arpdoshim,
Seni ko'rsam men o'zim yig`lab ketgan.²¹

²⁰ Келиной кўшиқлари, 156-бет.

²¹ Оқ олма, қизил олма, 166-бет.

Bo'ri ko'chma ma'noda zo'ravon, qonxo'r, ojizlarga nisbatan beshafqat, ularni talovchi sifatida talqin etilishi kuzatiladi. Bunda qo'y xalq, fuqaro timsolini, bo'ri esa zo'ravon kimsalar obrazini o'zida ifodalab keladi.

Jabborbegi o'ri edi,
Qo'yga chopgan bo'ri edi.
Manglayidan o'q tegsa,
Chivin chaqdi der edi.²²

Bunday kinoyali tashbeh Alisher Navoiy she'riyatida ham uchraydi. binobarin, ulug`shoir shunday yozadi:

Bo'rini dog'i galadin dur qil,
Suv beribon, bog'ni ma'mur qil.

Bunday kinoyali tashbeh Sakkokiyning Mirzo Ulug`bekka bag`ishlangan qasidalaridan birida ham uchraydi. U yozadi:

Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yo bo'ri,
Bo'ri o'lg`ayu qo'y tingay, chu Musodek shubon keldi.

Quyidagi qo'shiqda bo'ri o'z ma'nosida – yirtqich hayvon obrazini ifodalab kelmoqda:

Shu qishloqning tomida mo'risi bor,
Yotish erning salqinida **bo'risi** bor.
Olar yorim mol berib ob qo'yganman,
Sandaqadan ikkita cho'risi bor.²³

Xalq ertaklarida ko'p qo'llanadigan “och bo'ri” obrazi xalq qo'shiqlarida ham uchraydi:

Qora tog`ning boshida qo'yma meni,
Yolg`iz yotsam **och bo'ri** ermi meni.
Boshima qulfi jelak solib chiqay,
Akajonim, tashlablar ketma meni.

Qo'shiqda “och bo'ri” obrazi sifatlashli birikma ko'rinishida talqin

²² Келиной кўшиқлари, 96-бет.

²³ Оқ олма, қизил олма, 174-бет.

etilmoqda.

Ma'lumki, xalq dostonlarida epik qahramonlar o'z dushmanlariga "och bo'riday dorishi" ta'kidlanadi. Bunda ochlik emas, majoziy ma'nodagi shiddat, jasurlik o'z ifodani namoyon etadi. Aslida bu ham bo'ri totemiga e'tiqodning o'ziga xos badiiy ifodasi sanaladi.

Boqqa borsam bo'ri bor,
Qishloqqa kirsam o'g'ri bor.
O'tirib hayron qolarman,
Peshonamning sho'ri bor.²⁴

Qo'shiqda bo'ri va o'g'ri obrazlarining parallel keltirilayotgani bejizga emas. Zero, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xalq orasida o'g'rini topishda bo'ri juni olovga tashlanishi va azayimxonlik qilinishi aytiladi. Bundan o'g'rini tutqanoq tutib azoblangan va u olganlarini qaytarib berishga shoshilgan. Aks holda u tuzalmas dard orttirib, bir umrga ruhiy majruhga aylanib qolgan.

Xalq orasida inson oyog'ini shartli ravishda, tabuga asoslanib, bo'ri deyish odati ham shakllangan. Zero, xalqda "Bo'rini oyog'i boqadi" degan gap aytiladi. Binobarin, insonni ham qo'l-oyog'i boqishi inobatga olinib, ba'zan inson oyog'ini ham "bo'rivoy yoki bo'rvoy" deb aytilish an'anasi bor. Bunga ishora quyidagi qo'shiqlarda kuzatiladi:

Maydalar qil qo'ringni,
Bo'rboyga ber zo'ringni.
Agar mayda qilmasang,
Quritaman sho'ringni.²⁵

Yana:

Bo'liq-bo'liq qor yog'sa,
Bo'rvoyi kalta qo'yga zo'r.
Eshik oldin obyotsa,
Sochi uzun qizga zo'r.²⁶

²⁴ Келиной кўшиқлари, 55-бет.

²⁵ Келиной кўшиқлари, 70-бет.

²⁶ Келиной кўшиқлари, 84-бет.

Onalarning his-kechinmalari asosida yaratilgan alla namunalarida ham bo'ri obrazi ko'p uchraydi. Allalarda bo'rining ijobiy talqini kuzatiladi. Onalar o'z farzandining bevosita zo'r bo'riday bo'lishini orzu qiladilar. Bunda esa bo'ri totemining badiiy ifodasi namoyon bo'ladi. Masalan:

Chopingani bo'riday,
Bo'rilarning zo'riday.
Yigit bo'lar chirog'im,
O'zi urning eriday.
Alla bolam, alla,
*Jonim bolam, alla.*²⁷

Xullas, o'zbek folklorida totemizm rudimentlarining badiiy ifodalaridan biri bo'ri obrazi bilan bog'liqdir. Bo'ri totemiga inonch xalq qo'shiq namunalarida kuchsiz bo'lsa-da, saqlanib qolgan.

3.2. Xalq marosim qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi

O'zbek xalqining to'y va motam marosimi qo'shiqlarida ot, ilon, bo'ri, it, tuya kabi hayvonlarning obrazi ko'p ko'zga tashlanadi. Ularning har biri turli zamonlarda qadimgi turkiylar mifologiyasida muhim o'rin tutgan ot, bo'ri totemi hamda it, ilon, tuya kultiga aloqador qarashlarni o'zida tashiydi.

Bo'ri obrazini nikoh to'yi marosimining turli uzvlarida kuylanadigan turli qo'shiqlarda, jumladan, yor-yorlarda, o'lanlarda va kelinsalomlarda kuzatish mumkin.

Yo'lda yurgan **och bo'rilar**
Edi mani, yor-yor.
Yo'lda yurgan **och bo'rilar**
Qo'yni esin, yor-yor.
Umid bilan qiz boqqanlar,
To'yni esin, yor-yor.

²⁷ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б.285.

Qamchi bo'yi qor yog'sa,
Bo'ri yo'rtar, yor-yor.
Bolam sho'rlik ketdi deb,
Onang yo'rtar, yor-yor.

E'tiborli jihatida shundaki, o'lanlarda bo'ri obrazi, asosan, er-yigitlarga nisbatan parallel obraz sifatida keltirilishi kuzatiladi. Uning ayollarga tenglashtirilishi kuzatilmaydi. Masalan:

Qorativ bizning ovul qovoqlaydi,
O'lanni shoir yigit savaqlaydi.
Jarqo'tanning **yigiti bari bo'ri**,
Nechangni ushlab, nechangni chavaqlaydi.²⁸

Yoki:

O'lan aytsam, o'lanchi deydi mani,
Yo'lda yotsam, och bo'ri eydi mani.
Och bo'rining og'ziga qildan arqon,
Yigirmaga kirguncha kirdim zarxon.

Yoki:

O'lan aytsam, o'lanchi deydi meni,
Och bo'ri yo'lda yotsam eydi meni.
Uchar qanot menda bor sen deganga,
Umidoy, sen qolgaysan biz deganga.²⁹

Hayotda aqli-hushi o'zida bo'lgan ayol yo'lda dumalab yotmaganidek, hid sezish qobiliyati kuchli bo'lgan bo'ri ham mumkin qadar inson yo'llaridan chetlab yuradi. Qo'shiqdagi bo'ri poetik obraz bo'lib, tarixiy asosiga ko'ra, totemizm bilan bog'lanadi va ma'joziy ma'noda er kishini anglatadi. Uning ochligi ham fiziologik hodisa emas, balki psixologik kayfiyat, intim munosabatga tashnalikdir. Qildan qilingan arqon soch magiyasi bilan bog'liq bo'lib, yigirmagacha darxon yurish, yosh turmush qurmaganlik, ya'ni er – bo'ri

²⁸ Оқ олма, қизил олма, 177-бет.

²⁹ Оқ олма, қизил олма, 178-бет.

ixtiyoriga tushmaslikdir.

Umuman aytganda, “och bo’ri” obrazi o’lanlarda ko’p uchraydi:

O’lan aytsam, o’lanchi deydi meni,
Yo’lda yotsam, **och bo’ri** eydi meni.
Och bo’rining og`ziga qildan arqon,
Yigirmaga kurguncha yurdim darxon.³⁰

Shaqal – xalq orasida chiyabo’ri deb yuritiladi. Uning obrazi ham xalq qo’shiqlarida uchraydi:

Qiz:

Jo’jali tovuq sen bo’lib
Terib eyar chog`ingda,
Yurgan shaqal men bo’lib
Qirib ketsam qaytasan?

Yigit:

Yurgan shaqal sen bo’lib
Qirib ketar chog`ingda,
Yotgan ko’ppak men bo’lib
Hav-hav etsam netasan?³¹

Ko’rinyaptiki, ushbu qiz-yigit aytishuvida yigit shaqal (chiyabo’ri)ga, qiz esa unga em bo’lishi mumkin bo’lgan “jo’jali tovuq”ga o’xshatilmoqda.

Kelin salomlarda ham bo’ri obrazidan foydalanilganligi kuzatiladi. Masalan:

Og`zi sabzi o’raday,
O’rmondagi bo’riday,
Akasiga ko’p salom.
Yoki:
Qo’yga chopgan bo’ridek,
Og`zi allakim go’ridek,

³⁰ Гулёр: Фарғона халқ қўшиқлари / тўпловчи Х.Раззоқов/. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 172 (250).

³¹ Оқ олма, қизил олма, 111-бет.

O'rolvoyga bir salom.³²

Bo'ri obrazi o'zbek xalqining motam (aza) marosimi qo'shilarida eng ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan biridir. Masalan:

Minganimni so'rasang, to'riq otdir,
Jonivorning quyrug'i o'raladir.
Ovulimning itlarin chega³³ beray,
Jonivorning har qaysisi **bo'ri** oladir.

Azroil – xalq tasavvurida, o'limning elchisi, jon oluvchi, qo'rqinchli mifik mavjudot. U topishmoqlarda ko'pincha bo'ri obraziga tenglashtirilgani kuzatiladi. Jumladan: “Bir bo'ri qo'yning qonini chiqarmay eb yotar” deyiladi o'zbek xalq topishmoqlaridan birida. Azroil obrazi vahshiy, qonxo'r, yovuz, odamlarning, ayniqsa, chorvador-cho'ponlarning tinchini buzadigan bo'riga shunchaki o'xshatilmagan. O'layotgan odam esa bo'ri changalida qiynalib jon berayotgan, beozor, ojiz va ilojisiz qo'yga o'xshatilishi ham bejiz emas. Darxaqiqat, odamzod Azroil oldida, qo'y esa bo'ri changalida o'linga taslim bo'lishga majbur. Bu mantiqiy – badiiy o'xshashlik topishmoqning o'ziga xos ta'sirchanligini ta'minlab turibdi. Chorvadorlar orasida yaratilgan bu topishmoqlar hayotiy tasvir – cho'ponlar turmush tarzini yodga soladi.³⁴

Xullas, marosim qo'shiqlarining ayrim namunalarida ham totemizm rudimentlari ifodasi saqlanib qolgan. To'y va motam marosimi qo'shiqlarida yovvoyi, vahshiy bo'ri obrazining ham ijobiy, ham salbiy talqini uchraydi. U orqali insonlarning ichki kechinmalari, tasavvur-tushunchalari badiiy ifoda etilgani kuzatiladi. Bu tarixiy asosiga ko'ra, bevosita bo'ri bilan bog'liq totemistik inonchlar va bo'ri kulti haqidagi e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi.

3.3. Bolalar o'yin va o'yin qo'shiqlarida bo'ri obrazi tasviri

O'zbek bolalari orasida bo'ri nomi bilan bog'lanuvchi “Bo'ri keldi”, “Bo'ri

³² Оқ олма, қизил олма, 164-бет.

³³ Боғламок

³⁴ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

zovurda”, “Bo’ri va cho’pon”, “Otarda bo’ri”, “Bo’ri ovi”, “Bo’ri” singari qator o’yinlar keng tarqalgan. Hatto bunday o’yinlar boshqa xalqlar orasida ham uchraydi. Jumladan, litvalik bolalarining an’anaviy o’yinlaridan biri “Vilkelis” (“Bo’ri bolasi”) deb nomlanadi.

“Bo’ri keldi” o’yinida bolalar o’zlarini suv ichayotgan qilib ko’rsatadilar va birdan ularga bo’ri tashlanadi. Bo’ri qaysi bolani ushlasa, o’shani o’z yoniga oladi. Agar u hamma bolani ushlasa, u ona bo’ladi, ona bo’lgan bola esa bo’ri bo’lib, o’rin almashinadi.

O’yinda inson personajining bo’ri personajiga aylanishi, ularning o’zaro qorishib ketishi haqidagi hukmlar aslida bo’ri haqidagi totemistik tasavvurlar, inson o’lgach, uning ruhi u totem sanagan hayvonga qaytadi degan ishonchlar bilan bog’liq.

Hayvonlar haqidagi o’yinlar, asosan, majoziy ma’no kasb etadi. Chunki bu xil o’yinlarda, odatda, kuchli va kuchsiz jonivorlarning, jumladan, mushuk bilan sichqon, bo’ri bilan quyon yoki g’oz, tulki bilan o’rdak, xo’roz bilan tovuq va hokazolar o’rtasidagi konfliktli munosabat orqali ma’lum ijtimoiy-siyosiy ma’no ilgari suriladi.

“G’ozlarim” o’yinida ham bo’ri obrazi etakchi o’rin tutadi. Bu o’yinda ojiz, nimjon g’oz bolalari o’zlaridan olisroqdagi ona g’ozga yirtqich, qonxo’r bo’ri borligidan shikoyat qilar ekanlar, ona g’oz ularni dadillikka, intiluvchanlikka, tadbirkorlikka chorlab: “Uchib-uchib kelinglar!” – deydi. Chunki g’ozlar qanchalik yuqorilab uchsalar, ularni erda yuruvchi yirtqich hayvonlar oson ushlay olmaydi.

“G’ozlarim” turkumiga mansub o’yinlarda chorvaga zarar keltiruvchi hayvonlar ustidan g’alaba qozonish motivi ilgari surilgan. Bunday o’yinlar ijtimoiy taraqqiyotning ovchilik bosqichida paydo bo’lgan, unda bo’ri totem hayvon sifatida emas, balki chorvadorning dushmani, vahshiy hayvon tarzida talqin etiladi. Ayni paytda bunday o’yinlar majoziy ma’no kasb etadi. Ushbu o’yinda asosiy voqea bo’ri bilan g’ozlar o’rtasida bo’lib o’tsa-da, aslida unda qonxo’r bo’ri-vahshiy va zolimlarning umumlashma obrazini, g’oz esa ko’ngli beg’ubor, sodda, ojiz insonlarning umumlashma qiyofasini namoyon etadi.

Bu o'yin mehnat taraqqiyotining chorvachilik bosqichida yaratilganligiga shubha yo'q. Negaki, unda bo'ri chorvadorning dushmani–vahshiy hayvon tarzida tasvirlanmoqda. Qolaversa, ovchilik bosqichida bo'ri totem sifatida ardoqlangani ma'lum. O'yindagi bo'ri obrazini ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettiruvchi ko'chma ma'nodagi personaj sifatida ham qabul qilish mumkin. Chunki u o'yinda g'ozlarning (ko'chma ma'noda–tinch xalqning) osoyishtaligiga raxna soluvchi, qonxo'r, tekinxo'r, zolim kimsalar qiyofasini o'zida umumlashtirgan. Bu o'yin orqali bolalarda ojizlarga ozor etkazuvchi zolimlarga nisbatan nafratlana olish tuyg'usi ifoda etiladi.

“Bo'ri va echki bolalari” o'yini ham majoziy ma'no kasb etadi. O'yin mazmuniga ko'ra, bo'ri ona echki o'tlashga chiqqanidan foydalanib, uning uyiga tashrif buyuradi va ona echki ovozigacha taqlid qilib, echkibachchalarni eshikni ochishga chorlaydi. Echki bolalari soddalik qilib eshikni ochadilar. Bo'ri ularni o'z iniga olib ketadi. Uyiga qaytgan ona echki nima bo'lganini darhol fahmlab, bo'rining oldiga boradi. Bo'ri har bir echki bolasi uchun “haq” talab qiladi. Talabga binoan ona echki san'atkorlik mahoratini ko'rsatib, bolalarini qutqarib, o'z uyiga olib keladi. Shuning uchun bu o'yinda faqat bilag'on bolalargina “ona echki” roliga tayinlanadilar. Chunki ona echki mahorat ko'rsatib, bo'rini xursand qilolmasa, bo'ri uning bolalarini qaytarib berishga ko'nmagan. Xullas, bu o'yin mohiyati “Bo'ri va echki bolalari” ertagini yodga soladi. Demak, hayvon-personaj rolini yaratish asosida o'ynaladigan bolalar o'yinlarining shakllanishiga hayvonlar haqidagi ertaklar samarali ta'sir ko'rsatgan. Bunday o'yinlarni ko'pincha kichik yoshdagi bolalar ko'proq o'ynaydilar.

Xullas, bolalar o'yinlarida ishtirokchilarning turfa obrazlari namoyon bo'lgan. Ishtirokchilarning o'yinda qaysi yoki qanday obrazni bajarishlari o'sha o'yinning mazmuni va tabiati bilan chambarchas bog'liq. Ular o'yin xarakteri va mazmuniga qarab, rolga kirishadilar.

Bolalar o'yin qo'shiqlarida ham bo'ri obrazi tasviri uchraydi. Masalan:

- Bo'ri uzum eydimi?

-Bo'ri qo'zi eydi.

-Tulki sovun eydimi?

-Tulki tovuq eydi.

-Balli!

Quyidagi qo'shiqda bo'rini so'kish, qarg`ash motivi bor.

Juvonmargi bo'rilar,

Eshakkinamni so'ydilar.

Kallasin olib qo'ydilar,

Kallasin olib qo'ydilar.

Bo'ri qonxo'r, yirtqich hayvon bo'lganligi sabab, undan katta-yu kichik inson xavfsiraydi. Shuning uchun tog`li hududlarda yashovchi aholi hamisha o'z bolalarini bo'ridan ogoh bo'lishga da'vat etishgan. Bunday da'vatlar hatto bolalarga atalgan qo'shiqlar bag`riga ham singdirilgan:

Juba-juba

Anjuba.

Tog`da lola,

Bir qiz bola.

Arqangga qara,

Bo'ri kelyapti,

Arobasida o'ynab kelyapti.

Voy belim,

Sindi belim.

Bolalar tomonidan Ramazon oyida aytiladigan qo'shiqlarda ham bo'ri obrazi uchraydi. Afsonalarda aytilishicha, Ya'qub payg`ambarning o'n bir o'g`li bo'lgan ekan. Shular orasida Ya'qub payg`ambar ko'proq kenja o'g`li Yusufni juda sevar va ardoqlar ekan. Yusuf go'zalligi bilan hammani hayratda qoldirar ekan. Kunlardan bir kuni akalari Yusufni aldab, cho'lga ovga olib ketishadi va u erda Yusufni eski bir quduqqa itarishadi. Yusuf quduq tubida qolib ketadi. Yaxshiyamki, shu orada bir o'tkinchi karvon Yusufning ovozi eshitib, uni choh-quduqdan qutqaradi. Lekin karvonboshi Misrga etib borganlaridan so'ng uni qul qilib sotadi. Shu-shu Yusufning boshidan ko'p ko'rguliklar o'tadi. Akalari esa

uyga kelib, otalariga Yusufni bo'ri edi deyishadi va buning tasdig'ini bildirish maqsadida ukalarining kiyik qoniga bo'yalgan ko'ylagini ko'rsatishadi. O'g'lining qonli ko'ylagini ko'rgan Ya'qub payg'ambar o'g'illarining gapiga ishonadi va kecha-kunduz Yusuf dardida yig'lab, ko'zlari ko'r bo'lib qoladi. Ana shu afsona syujeti quyidagi qo'shiq mazmuniga singdirilgan:

Payg'ambarning o'n bir o'g'li bor edi,
Hammasidan Shoyusuf gulzor edi.
Shoyusufni ovga olib chiqdilar,
Jarga tashab, **bo'ri edi** dedilar,
Otasi, onasi yugurib chiqdi jar boshiga.
Chashmalar ravon bo'ldi ko'z yoshiga.

Xullas, bolalarning o'yinlarida va o'yin qo'shiqlarida ham bo'ri obrazi ko'p uchraydi. Ular orqali ko'pincha tog'li hududlarda yashovchi aholi o'z bolalarini qonxo'r va yirtqich hayvon bo'lgan bo'ri hujumidan ogoh bo'lishga da'vat etishni ko'zlagan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Qadimgi odam o'zini tabiatdan ajratmagan. U o'zini tabiatning bir qismi deb bilgan. Ayniqsa, turkiy urug'lar o'z kelib chiqishini bo'ri totemi bilan bog'lagan. Shu sababli turkiylar vafot etgach, uning joni o'z totemi bo'lgan bo'ri shaklida yashashda davom etadi deb tasavvur qilishgan va natijada bo'rini ajdodboshi sanash udumi kelib chiqqan.

2. Turkiy xalqlar mifologiyasida ko'k bo'ri ezgulik timsoli sifatida qabul qilingan. Tafakkur taraqqiyoti natijasida u totemdan so'ng kultning obrazli ifodasiga aylangan. Bo'ri muqaddaslashtirilgan. U ezgulik, baxt va omad, sog'lik, qut-baraka ato etuvchi mifik kuchning zoomorf timsoliga aylangan.

3. O'zbek folklorida bo'ri obrazining genezisi turkiy mifologiya orqali jahon xalqlari mifologiyasi bilan bog'lanadi. Chunki jahon xalqlari folklorida ham bo'ri obrazining badiiy ifoda etilganini kuzatish mumkin. Zero, muqaddas bo'ri obrazi boshqa xalqlar folklorida ham kuzatiladi.

4. O'zbeklarning bo'ri bilan bog'liq tasavvur-tushunchalari bo'ri kulti va fetishizm bilan bog'liq e'tiqodlarda ham o'z ifodasini topgan. Buni odamlarning bo'ri tishini asrovchi tumor sifatida ko'tarib yurishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

5. Muqaddas bo'ri kultiga sig'inish shomonizm bilan aloqador an'analarda ham o'ziga xos ifodasini topgan. Bo'ri shomon, ya'ni xalq tabiblari faoliyatida shifo ato etuvchi magik vositaga aylangan.

6. Bo'ri va tush ta'biri ham o'zbeklarda shomonizm bilan bog'liq tushunchalar tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ayni paytda buning badiiy ifodasini ayrim ertak va dostonlar syujetida ham kuzatish mumkin.

7. Bo'ri totemi bilan bog'liq qadimiy xalq qarashlari ko'hna miflar tarzida hikoya qilinibgina qolmasdan, uning mohiyati turli ritual xatti-harakat va magik amallar vositasida namoyish etilgan, ya'ni ibtidoiy marosimlarning tarkibiy qismi sanalgan totemistik raqslar orqali ham ifoda qilingan.

8. Bo'ri totem sifatida qabul qilingani sabab ota-ona kabi xaloskor, yo'l ko'rsatuvchi, qahramonlarga yordam beruvchi, shavkatli, jasoratli, yaxshiliksevar jonzot sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, xalqimizning bo'ri bilan bog'liq afsona va rivoyatlarida u odamlarni barcha kulfatlar, kasalliklar va yovuzliklardan asrovchi homiy himoyachi sifatida tasvirlanadi.

9. Bo'ri to'g'risidagi mifologik talqinlar natijasida bo'ri haqidagi totemistik tasavvurlar bo'ri-ajdod kultiga doir miflar; homiy – ajdod haqidagi geneologik miflar; bo'ri totemiga topinuvchi urug'ning kelib chiqishi to'g'risidagi etnonimik afsonalar yuzaga kelgan. Bo'riga topinish izlari o'zbek xalqining turli urf-odatlar va irimlarida ham bugungi kunga qadar ma'lum darajada saqlanib qolgan.

10. Bo'ri obrazi afsona, ertak, doston janrlaridan tashqari qo'shiqlar va bolalar o'yinlarida ham uchraydi. To'g'ri, ertaklar darajasida bo'lmasa-da, qo'shiqlarning ayrim namunalarida ham totemizm rudimentlari sifatida bo'ri obrazi ifodasi saqlanib qolgan.

11. Bo'ri kultining tarixiy asoslari o'zbek folklorida bo'ri obrazining quyidagi o'ziga xosliklari va tiplarini paydo qilgan:

- a) bo'ri obrazi etakchi qahramon sifatida tasvirlanadi;
- b) bo'ri obrazi yordamchi personaj vazifasini o'taydi.

Xullas, bo'ri obrazi dastlab xalq og'zaki ijodida ibtidoiy insonlarning dunyoqarashini, totemistik, animistik va shomoniylilik tushunchalarini tashigan bo'lsa, keyinchalik tabiiy bo'ri obrazida ifodalanib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари / Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.627-631.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 174 б.
3. Акрамов Ғ. Тотемистик мифлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 3. – Б.32-35.
4. Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1959. – 316 б.
5. Асотирлар ва ривоятлар. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: М.Муродов, М.Шайхова. – Т.: “Ёш гвардия”, 1990. – 128 б.
6. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964. – 68 б.

7. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 199-205.
8. Бир бор экан... Ўзбек халқ эртаклари. – Т.: Мехнат, 1955. – 182 б.
9. Боболардан қолган нақллар. (Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: М.Жўраев ва У.Сатторов). – Т.: «Фан», 1998. – 128 б.
10. Ботир Исомухаммад. Туш кўриш хосиятлари. Янги замон туш таъбирлари. – Т.: Истиқлол, 2003. – Б.64.
11. Гулёр: Фарғона халқ кўшиқлари / тўпловчи Ҳ.Раззоқов/. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 250 б.
12. Гулиқаҳқаҳ пари. Ўзбек халқ фантастикаси. VI-китоб. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б.120-135.
13. Гўзалов Ф. Сехрли эртакларда эврилиш ва унинг архаик шакллари. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989. – №4. – Б.48-52.
14. Донишманд чўпон. Ўзбек халқ эртаклари. – Т.: Ўзбекистон, 1991.
15. Yonartosh. O`zbek xalq ertaklari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2004 – 44 б.
16. Жалолов Ғ. Сехрли эртаклар ва ҳаёт. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1977. – №2. – Б.69-70.
17. Жалолов Ғ. Эртаклар фантастикасига бир назар доир. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – №5. – Б.55-58.
18. Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг спецификаси. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1996. – №2. – Б.30-33.
19. Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг сюжет ва мотивлари. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1996. – №5. – Б.36-37.
20. Жўраев М. Кўк бўри авлодлари. – Тошкент. – Фан ва турмуш. – 1983. – № 3. – Б.14-15.
21. Жўраев М. Бойсун – бўри қабиласи. – Тошкент. – Гулистон. – 1991. – № 8. – Б.27.
22. Жўраев М. Бўри ҳақидаги қадимги туркий мифлар ва ўзбек фольклори // Адабиёт гулшани. – Тошкент: Мехнат, 1998. – Б.8-17.

- 23.Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – 136 б.
- 24.Жўраев М. Наврўз байрами. – Т.: Фан, 2011. – 230 б.
- 25.Зарифов Х. Фольклор ва археология материалларини киёсий ўрганиш масаласига доир. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1958. – № 1. – Б.25-30.
- 26.Зумрад ва Қиммат. Ўзбек халқ эртаклари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 320 б.
- 27.Илон пари. Ўзбек халқ фантастикаси. 3-китоб. – Т.: “Ёш гвардия”, 1985.
- 28.Имомов К. Эртакларда тилсим. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1977. – №6. – Б.46-49.
- 29.Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Т.: Фан, 1981. – 192 б.
- 30.Имомов К. Эртақ // Ўзбек фольклори очерклари. 2 –жилдлик. 2-жилд. – Т.: Фан, 1989. – Б.69-70.
- 31.Имомов К, Мирзаев Т, Саримсоқов Б, Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
- 32.Келиной кўшиқлари: Халқ кўшиқлари ва термалари. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи О.Собиров. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 240 б.
- 33.Кенжа ботир. Ўзбек халқ эртаклари. – Т.: Ёш гвардия, 1968.
- 34.Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғотит турк. 1-том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Т.: Фан, 1960. – Б.60-62.
- 35.Мисқол пари. Гулнор пари. Авазхон. Достонлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – 390 б.
- 36.Мурот Ўроз. Турк асотирлари. – Тошкент. – Сирли олам. – 1991. – № 6. – Б.11.
- 37.Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.

- 38.Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
- 39.Потапов Л.П. Волк старинных народных поверьях и приметах узбеков. – С.135-142.
- 40.Раҳмонов Т. Сеҳрли эртақларнинг айрим мотивлар генезисига доир. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1992. – №3-4. – Б.51.
- 41.Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. Сеҳрли эртақлар. 4-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987.
- 42.Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – Б.208-215.
- 43.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Т.: Musiqa, 2010. – 368 б.
- 44.Содиқова М. Жон ҳақидаги анимистик тасаввурлар. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – №5. – Б.61-64.
- 45.Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1963. – Б.29.
- 46.Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти): Филол. фанлари номзоди ил-й даражасини олиш учун ёзилган дис-я автореферати. – Т., 2004. – 22 б.
- 47.Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. 2-е изд. – М.: Политиздат, 1983. – 703 с.
- 48.Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртақчилиқ анъаналари алоқалари тарихидан очерклар. – Т.: Ўқитувчи, 1982 – 290 б.
- 49.Юсупов Ж. Хоразм эртақлари поэтикаси. – Урганч, 2005. – 206 б.
- 50.Ўзбек халқ эртақлари. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 280 б.
- 51.O`zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. 1-jild. – Т.: “O`qituvchi” NMIU, 2007. – 384 б.
- 52.O`zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. 2-jild. – Т.: “O`qituvchi” NMIU, 2007. – 384 б.

- 53.Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими фольклори жанрий таркиби, генезиси ва бадиияти: Филол. фанлари доктори ил-й даражасини олиш учун ёзилган дис-я автореферати. – Т., 2005. – 36 б.
- 54.Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
- 55.Ғафуров Ғ. Удумларда – халқ қалби. – Т.: Ёш гвардия, 1986. – 192 б.
- 56.www.wikipedia.com.
- 57.www.google.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-8
-------------	-----

I bob. O'zbek xalqining bo'ri bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari genezisi.....	9-20
1.4 Bo'rining turkiy xalqlar totemi sifatida qaralishi.....	9-13
1.5 Xalqning bo'ri kultiga inonchi.....	13-17
1.6 Marosimlarda bo'ri ifodasi.....	17-20

II bob. Xalq nasrida bo'ri bilan bog'liq qarashlarning badiiy	
---	--

talqini.....	21-34
2.3. Afsonalarda bo'ri obrazi.....	21-24
2.4. Ertaklarda bo'ri obrazi.....	24-34
 III bob. Xalq lirikasida bo'ri obrazi talqini.....	35-46
3.1. Xalq lirik qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi.....	35-39
3.1. Xalq marosim qo'shiqlarida bo'ri obrazi ifodasi.....	40-43
3.2. Bolalar o'yin va o'yin qo'shiqlarida bo'ri obrazi tasviri.....	43-46
 XULOSALAR.....	47-48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	49-52